

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK (____)

Himoyaga tavsiya etaman

Magistratura bo‘limi boshlig‘i

_____ t.f.n, dots. M.H.Esanov

«_____» iyun 2014 y.

Himoyaga tavsiya etaman

“Kasb talim metodikasi”

kafedra mudiri

_____ p.f.n, dots. O.A.Qo‘ysinov

«_____» iyun 2014 y.

Ataxanova Gavxarxon Mirsalixovna

Mexnat ta’limi darslarida o‘quvchilarni kasb-xunarga yo‘naltirish metodikasi

5A112101-“Mehnat ta’limi metodikasi”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar _____

p.f.d., prof. X.F.Rashidov

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishga oid bilimlarni rivojlantirishning nazariy asoslari .
- 1.2. O‘zbekistonda kasb-hunarga yo‘naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishi

I-BOB bo‘yicha xulosalar

II-BOB. MEHNAT TA‘LIMI JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH METODIKASI

- 2.1. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida mehnat ta‘limi jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning metodik asoslari
- 2.2. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning samarali metodikalari

II-BOB bo‘yicha xulosalar

III BOB. 3. UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH BO‘YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI.....

- 3.1. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o‘tkazish metodikasi
- 3.2. Olingan natijalar tahlili.....

III-BOB bo‘yicha xulosalar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ilovalar

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasida 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mamlakatimizda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish va uni rivojlantirish yo'llarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining maqsadi fuqarolarga ta'lim - tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning xuquqiy asoslarini belgilaydi xamda xar kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy xuquqini ta'minlashga qaratilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim turlarini o'z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati 9-yillik umumiy o'rta hamda 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi uzluksiz-ta'limning yettita ta'lim turidan iborat bo'lgan modelini belgilab berdi. Ushbu modelga ko'ra, uzluksiz ta'lim tizimida ta'limning butunlay yangi turi bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi shakllantirildi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi turlari orasidagi uzviylik va izchillikni ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarini keyingi ta'lim bosqichiga samarali o'tishini ta'minlash, maktab bitiruvchilarini o'zlarining qobiliyatlari, imkoniyatlari, hohish-istaklari asosida keyingi ta'lim yo'nalishlari va kasblarni tanlashlarida kasb-hunarga yo'naltirish tizimining ahamiyati juda kattadir. Ta'lim to'g'risidagi qonunga ko'ra umumta'lim maktablarining 9-sinflari bitiruvchilarining barchasi 3 yillik majburiy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga to'liq qamrab olish hamda o'qishni davom yettirishi lozim.

Bundan, o'z navbatida bir qancha tashkiliy, ta'limiy, tarbiyaviy muammolar kelib chiqadi, bular:

- umumta'lim maktablari bitiruvchilarini keyingi bosqichga samarali yo'naltirish va ularni tanlagan ta'lim yo'nalishlarida o'qish bilan to'liq qamrab olish;

- bitiruvchilarga akademik litseylar va kasb-hunar kollejlardagi tayyorlov yo'nalishlarini to'g'ri va samarali tanlashlariga ko'mak berish;

- 9-sinflar bitiruvchilarini keyingi ta'lim turi muassasalariga to'liq qamrab olishni tashkil etish.

Yuqorida keltirilgan mummolarni hal qilish maqsadida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish tizimi joriy qilindi. Xozirgi kunda respublikamizda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va ularni psixologik-pedagogik tashxis qilishning tashkiliy asoslari yaratilgan va faoliyat ko'rsatmoqda. Xalq ta'lim vazirligi tasarrufidagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi va uning viloyat hamda tumanlardagi bo'linmalari umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini izchil amalga oshirmoqdalar.

Ushbu markaz tomonidan xozirgi kungacha qator psixologik-pedagogik tashxis metodikalari, yo'riqnomalar va qo'llanmalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan. Tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan meyoriy hujjatlar majmuasi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilindi.

Meyoriy hujjatlardan tashqari pedagogik-psixologik tashxis metodikalari ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular bo'yicha ishlar xozirda umumta'lim maktablari 9-sinflari bitiruvchilari o'rtasida olib borilmoqda.

O'quvchilarni kasb-hunarga yunaltirish ko'pqirrali, ijtimoiy muammo bo'lib, uning oldida hali hal qilinmagan vazifalar, yechilmagan muammolar ko'p. Masalan, kasb-hunar kollejlardagi nufuzli va kamroq nufuzli tayyorlov yunalishlari va kasblarni o'quvchilarning imkoniyatlari, istak-hohishlarini anglagan holda to'g'ri tanlashga yo'naltirish, akademik litseylarga iqtidorli o'quvchilarni tanlab olish, mahalliy hududiy rivojlanish sohalaridan kelib chiqqan holda kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil qilish va h.k.z.

Ta'lim - tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida

umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va hayotga tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kasb-hunarga yo'naltirish bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashgan holda, shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyatini belgilanishida asosiy jarayonni o'taydi.

Kasb-hunarga yo'naltirish jarayoniga o'quvchilarning kasb-hunarni o'zlarining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil va erkin tanlashning ilmiy amaliy tizimi sifatida qarash lozim. Ma'lumki, o'quvchi kasb-hunarga tanlashda o'z imkoniyatlarini tasavvur qila olish va baholay olish ko'nikmasiga, har xil kasblarning imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Biz magistrlik tadqiqotimizda umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchi yoshlarni hayotga tayyorlash va kasb-hunar tanlashga yo'naltirishga oid pedagogik-psixologik muammolarni o'rganib chiqdik.

Kasb-hunarga yo'naltirish shaxsning kelajakdagi kasbiy faoliyat subyekti sifatida o'ziga xos shakllanish jarayonini o'taydi, ya'ni kelajakda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib boradi. Kasb-hunar tanlash shunday jarayonki, u insonni butun umrga baxtli yoki baxtsiz qilib qo'yadi. Barcha rejalarni barbod qilishi yoki amalga oshirish sababchisi bo'lishi mumkin. Baxtsizlik va omadsizlikni hohlamagan inson o'z tanloviga ikkilanmagan holda har tomonlama taroziga solib ko'rib, qaror qabul qilishi lozim.

Shaxs tomonidan kasb tanlash faqatgina uning hohishi va qobiliyatlari bilan belgilanmasdan, balki u yashaydigan jamiyatdagi erishgan moddiy va ma'naviy yutuqlar bilan ham aniqlanadi. Iste'dod, jamiyatning ehtiyoji, kasb – hunar tanlash masalasi o'zaro jiddiy bog'liqlikda bo'ladi. Biror kasbga iste'dodi bo'lgan yoshning kasb-hunar egallashda jamiyatdagi ushbu kasb uchun ehtiyojning mavjudligi va shu soha bo'yicha erishilgan yutuqlar, kasb-hunarga tayyorlash uchun moddiy – texnika bazasining mavjudligi, muhim o'rin egallaydi. Kasb tanlashda, mutaxassisning mehnat faoliyatiga moslashishini e'tiborda tutmoq muhim ahamiyatga ega. Insonlar turli qobiliyat va iste'dodga egadirlarki, ularning biriga bir ish yoqsa, boshqasiga boshqa mehnat faoliyati yoqadi.

Shulardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samaradorligi, bitiruvchilarni keyingi ta'lim bosqichiga o'zlarining imkoniyatlari va istaklari bilan o'tishlari borasida xali yechimini topmagan muammo va kamchiliklar mavjud. Masalan, maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisiga xozirda har bir o'quvchida mustaqil kasb tanlashga ijobiy munosabatni, qiziqish hamda ehtiyojni shakllantirish birmuncha qiyin kechmoqda. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda shaxsning kasb tanlashi ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik-pedagogik omillar ta'siriga bog'liqdir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish ishlarining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha alohida fan yoki predmetning mavjud emasligi, bu faoliyat uchun maxsus dars soatlari ajratilmaganligi, o'quvchilarda kasb-hunar kollejlarda o'qitilayotgan kasblar xaqida bilimlarning to'liq shakllanmaganligi, o'quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalarning yetarli emasligi va boshqa muammolar ushbu ilmiy-tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili:

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish muammolari kasb-hunar ta'limi, uning rivojlanishi va takomillashtirilishi bilan bog'liq ravishda doimiy o'rganilgan va ma'lum darajada tadqiqot ishlari olib borilgan.

Maktab o'quvchilarinnng kasb tanlash va ularni kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, A. Vorobyov, K. Boymirov, K. Davlatov, R. Isyanov, I. Karimov, P. Mazgumov, O. Magdiyev, B.Mirzaahmedov, U.Nishonaliyev, J. Ramizov, N. Shodiyev, E. Choriyevlarning ilmiy ishlarida maktab o'quvchilarini kasb-hunar tanlashga va kasblarga moyilliklarini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning tashkiliy pedagogik asoslari K.Davlatov, A.V.Soy, R.H.Jo'rayev, V.YE.Alekseyev, tomonidan tadqiq qilingan.

R.H.Jo'rayev, A.V.Soy, H.F.Rashidov, O'.Tolipov, SH.Xodjayevalar muammoninmg nazariy-pedagogik tomonlarini yoritib bergan.

SH.T.Ergashev, V.Korotina, va boshqalar tomonidan umumta'lim maktablari o'qitiladigan fanlar integratsiyasi orqali o'quvchilarda kasb-hunarlariga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish muammolari ochib berilgan.

Kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik muammolariga Y.M.Asadov, G.T.Yadgarova, A.Zakirov, G.S.Nasriddinova, kabilar, mehnat va kasb-hunar ta'lim uzviyligi muammolari N.Muslimov va SH.Sharipov tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar va tahliliy materiallar o'quvchilar va maktab bitiruvchilarining kasb-hunar tanlashlarida ayrim kasb-hunarlarning hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining nufuzliligi omili hali xam katta ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, oilaning ta'siri omili – oilaning ijtimoiy sharoiti, ota-onalar va oiladagi boshqa a'zolarning ma'rifiy saviyasi, ota-onalarning kasbiy mavqei, oilaning an'analari va moddiy ta'minoti xam alohida o'rin tutmoqda.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning maktab va sinfda o'tadigan ta'limiy jarayonlarinigina emas, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim orqali kasb-hunarga yo'naltirishning ahamiyatini xam ta'kidlab o'tish lozim. Biroq, bu yo'nalishda hozirgacha mufassal ishlar olib borilmayapti. O'quvchilarning ayniqsa, katta maktab yoshidagi o'quvchilarning kasb-hunarni o'zlari belgilashlari, ushbu yo'nalish bo'yicha ularning dunyoqarashini shakllantirishda maktabdan va sinfdan tashqari ishlarning salmoqli o'rin tutishi mumkinligini xisobga olib, uning hozirgi kundagi xolatini o'rganib chiqish, uning imkoniyatlaridan keng foydalanish yuzasidan izlanishlar olib borish lozim.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarining aksariyati zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlandi va ta'minlanmoqda. Lekin axborot-kommunikatsion vositalardan kasb-hunarga yo'naltirishda foydalanish masalalari hali xam o'z dolzarbligini yo'qotmagan..

Istiqbolli yo'nalishlardan yana biri – bu o'quvchilarni maktabdagi fanlarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonida kasb-hunarga yo'naltirishdir. O'qituvchilar kasb-hunarga yo'naltiruvchi vazifasini bajarib, o'z fanining u yoki bu kasb-hunarni

egallash, akademik litsey yoki kasb-xunar kollejlarining tayyorlov yoʻnalishlari boʻyicha oʻqishni davom ettirishdagi ahamiyatini uqtirib borishlari kerak.

Xozirgi kunda 12 yillik taʼlimga toʻliq oʻtish munosabati bilan umumiy oʻrta xamda oʻrta maxsus, kasb-xunar taʼlimi muassasalaridagi kasb-xunarga yoʻnaltirish ishlarini muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etib, bu yoʻnalish taʼlimning xar ikki bosqichida olib boriladigan ishlarning maqsad va vazifalarini mazmunan qayta koʻrib chiqishni xamda yangi va yagona bir dastur asosida, tizimli ishlashni taqozo etadi.

Kasb-hunarga yoʻnaltirishning muvofiqligini taʼminlash muxim psixologik ahamiyatga ega boʻlib, yosh fiziologiyasi va psixologiyasi nuqtai-nazaridan oʻrganib chiqishni talab etadi. Maktabga 6-7 yoshdan kelgan bolalar, uni 15-16 yoshda bitiradilar. Ilmiy nuqtai-nazardan bu yoshdagi bolalar xali fiziologik, aqliy, ijtimoiy jixatdan toʻliq yetilmaganligi, shuningdek, bu sifatlarning rivojlanishi ularning xammasida bir xil va bir vaqtda shakllanmasligi bilan xarakterlanadi. YAʼni ularning ayrimlarida fiziologik, psixik, intellektual jarayonlar, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli sifatlar tezkor rivojlanadi, ayrimlarida esa bu sifatlar asta-sekin shakllanadi. Shunday ekan, ularning barchasining birdek maktabdagidan mutlaqo farqlanuvchi tashkiliy - pedagogik sharoitda oʻqishni davom ettirishga tayyorligini taʼminlovchi pedagogik tizimning yaratilishi xozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan pedagogik muammolar ilmiy-tadqiqot mavzusini **“Mehnat taʼlimi darslarida oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish metodikasi”** deb belgilashga asos boʻldi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi: Tadqiqot Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti “kasb taʼlimi metodikasi” kafedrası ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari asosida bajarildi.

Tadqiqot obykti: umumiy oʻrta taʼlim maktablarida mehnat taʼlimi fanini oʻqitishda kasb-hunarga yoʻnaltirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: mehnat taʼlimi fanini oʻqitishda kasb-hunarga yoʻnaltirish mazmuni, shakli, metodi va vositalari.

Tadqiqotning maqsadi: Mehnat ta'limi darslarida umumta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning asoslari va metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid bilimlarni rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish va tizimlashtirish;
- O'zbekistonda kasb-hunarga yo'naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini aniqlash;
- Kasblar to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish;
- Kasblar dunyosi va kasbga yo'naltirish metodikasini ishlab chiqish;
- Kasb-hunarga yo'naltirishda pedagogik texnologiyalarni aniqlash va tavsiya etish;
- Umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogik tadqiqot metodlari hamda metodologiyasi muammolarini tadqiq etish borasida olib borilgan ishlar, xususan, K.Davlatov, A.V.Soy, R.H.Jo'rayev, V.YE.Alekseyev, H.F.Rashidov, O'.Tolipov, SH.Xodjayeva, SH.T.Ergashev, V.Korotina, Y.M.Asadov, G.T.Yadgarova, A.Zakirov, G.S.Nasriddinova, N.Muslimov, SH.Sharipov va O.Qo'ysinovlarning tadqiqotlari tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy farazi: umumta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish samaradorligi oshadi, agar:

- umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy asoslari o'rganilib, yaxlit tizim sifatida shakllantirilsa;
- umumta'lim maktablari o'quvchilarida kasblar to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish metodikasi ishlab chiqilsa va amalga tadbiq qilinsa;
- kasblar dunyosini shakllantirish va kasbga yo'naltirish metodikasi takomillashtirilsa va amaliyotga tadbiq qilinsa;
- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llansa.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid bilimlarni rivojlantirishning nazariy asoslarining aniqlanganligi; O'zbekistonda kasb-hunarga yo'naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishi holatining tadqiq qilinganligi; kasblar to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish metodikasining shakllantirilganligi; kasblar dunyosi va kasbga yo'naltirish metodikasining ishlab chiqilganligi

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati umumta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga samarali yo'naltirish, keyingi ta'lim bosqichlari, kasblar va ixtisosliklarni mustaqil ravishda tanlashga tayyorlash bo'yicha pedagogik-psixologik tadbirlar o'tkazishning ilmiy-metodik asoslari yaxlit ilmiy-tadqiqot ishi sifatida ilk bor amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o'tkazilgan tadqiqot natijalari, taklif qilinayotgan metodikalar umumta'lim maktablari kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislari va psixologlari uchun metodik yo'riqnoma va qo'llanma bo'lib xizmat qilishidan iborat.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqotning bazasi sifatida Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 73-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tanlab olindi va ularda tadqiqot ishlari amalga oshirildi. "Maktab va hayot" (3-son, 2014yil) jurnalida ishlanmalar chop etildi.

Ishning sinovdan o'tishi (aprobatsiyasi). Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari "Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy- pedagogik kompetenligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari" nomli Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida (O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari (81-82 betlar, Toshkent-2013y.)), "Pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularning malakasini oshirishda innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilish masalalari" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ((O'rta mahsus kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayorlash instituti. "Kasb-hunarga yo'naltirish darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash". Toshkent-2014y., 41-42betlar)), "Boshlang'ich

ta'limning sifatini oshirish, o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishning dolzarb masalalari" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ((Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish" Toshkent-2014y., (213-215 betlar)) muhokama qilingan va maqullangan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, 6 band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishga oid bilimlarni rivojlantirishning nazariy asoslari

Respublikamizda yoshlarni kasbga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish uzluksiz ta’lim tizimining resurslar, kadrlar, tashkiliy, axborot hamda huquqiy jihatdan samarali faoliyat ko‘rsatishining zarur sharti hisoblanadi.

Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchi-yoshlar mehnat bozori to‘g‘risidagi bilimlarini kengaytirish, o‘z karyerasini muvvafoqiyatli tashkil etish yo‘llari haqidagi tasavvurlarini oshirish ularning mehnat bozorida raqobatga yetarlicha tayyor bo‘lishiga olib keladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish muammolari bilan vatanimiz va chet mamlakatlar ko‘plab olimlari ish olib borganlar.

Jumladan, G.S. Nasriddinovaning ishida o‘quvchilarda kasb tanlashda yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda asosan kasbiy axborotlarning to‘g‘ri tashkil etilmaganligi sababli kasb tanlashda noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi qayd qilingan. (57)

M.Cherednikov va SH.Ergashevlar (93, 94) kasbshunoslik va kasb tushunchasini ochib berib. Bu tushunchaning semantik maydonining noaniqligi va o‘zgaruvchanligini ko‘rsatib o‘tganlar. Bunda “Mashg‘ulot”, “Kasb”, “Mutaxassislik” tushunchalarida ham chalkashliklar mavjudligi qayd etiladi. Klassik fanda kasbni mehnat taqsimoti kategoriyasi va undan kengroq holda ijtimoiy faoliyatning differentsiatsiyalash orqali qabul qilish odatga kirgan. Kasbning mohiyatini tushunishdagi farqlar quyidagilarga tegishli deb qabul qilingan:

- kasblarning tabiati: ba’zi holda bu moddiy mehnat taqsimoti, boshqa holda esa, jamiyatni boshqarish va ma’naviy funksiyalarni bajarish bo‘yicha faoliyat;

- maxsus faoliyatning u yoki bu ko‘rinishini aynan kasbiy faoliyatga tegishliligi mezonlari;

- kasbning asosiy funksional tegishliligi: jamiyat yoki birinchi navbatda ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishi.

Kasbni aniq bir mehnat turiga taalluqliligi orqali aniqlash O.I. Shkaratanning ishlarida ham aks etgan: “kasb – individning (bozor narhiga ega bo‘lgan) muayyan faoliyat turi bo‘lib, bu individum u bilan mablag‘ topish uchun doimiy shug‘ullanadi”.

Yevropa mamalakatlari kasbiy tegishlilik ikki tushuncha yordamida ochib beriladi: *occupation* («mashg‘ulot», yoki «kasb») va *profession* – «ishni tashkil qilish shakli, mehnat yo‘nalishi turi».

Shunday qilib, kasbning ta’riflariga asoslanib kasblarning tasniflash modellari tuziladi. Bularning ichida universal bo‘lib 1988 yilda ishlab chiqilgan Mashg‘ulotlarning xalqaro klassifikatsiyasi va 2000 yilda ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining Milliy mashg‘ulotlar klassifikatsiyasi xizmat qiladi.

Umumta’lim maktablarida kasb-hunarga yo‘naltirish uchun asosiy bo‘lgan tasniflagich esa “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi” bo‘lib, uning asosida kasb-hunar kollejlariidagi tayyorlov yo‘nalishlari, ixtisosliklar belgilanadi. (9)

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish murakkab jarayon bo‘lib u bir qancha omillar asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan qaralganda kasbiy o‘z-o‘zini belgilash jarayoniga ta’sir etuvchi omillarning 4 ta guruhi farqlanadi.

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar. O‘z rivojlanishining turli bosqichlarida hayotga kirib kelayotgan jamiyat yoshlariga o‘z kuchini sarf etish uchun turli sohalarni taklif etadi. Bu birinchi galda, kasblar spektri, ularning o‘zgarishi va rivojlanishi istiqbollari, jamiyatning u yoki bu mutaxassislariga ehtiyojiga taalluqli.

Ikkinchi guruhga ijtimoiy- psixologik omillarni kiritish mumkin. Bu, eng avvalo, insonning maktab ta’limigacha va undan so‘ng o‘sadigan va

tarbiyalanadigan ijtimoiy muhitdan iboratdir. Ijtimoiy muhit ta'sirida shaxsning eadriyatlarni anglash kasblarning turli guruhlarga nisbatan ma'lum munosabati, o'ziga xos maqsadlar, stereotiplar va ustanovkalari shakllanadi.

Uchinchi guruhni asl psixologik omillar tashkil etadi. Bu shaxsiy qiziqishlar va moyilliklar, umumiy va maxsus qobiliyatlar, aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi, xotira, diqqat, motorika va shu kabi xususiyatlar.

To'rtinchi guruh ham o'quvchining individual-psixofiziologik xususiyatlaridan iborat. Ular psixik jarayonlar kechishining dinamik- tavsiflarini belgilaydi va faoliyatning ma'lum ko'rinishlarini bajarishga ko'ra moslashuvchi, yo uni qiyinlashtiruvchi turli temperamentlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik omillar G.T.Yadgarova, Y.M.Asadov, A.Zakirovlarning ilmiy ishlarida aks etgan. (35, 36, 100)

H.F.Rashidov va U.B.Turdubekovning (68) ishlarida kasbga yo'naltirishning samarali tizimini yaratishda bir qator iqtisodiy jarayonlarni ham tadqiq etish lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Chunki kasbga yo'naltirish va kasb tanlash ma'lum ma'noda iqtisodiyotga aloqador bo'lgan jarayondir. Aniqrog'i, kasbga yo'naltirish tizimi faoliyatining yakuniy natijasida ma'lum bir kasb tanlanadi va bu tanlangan kasbning ro'yobga chiqishi *iqtisodiy jarayon* bilan bevosita aloqadordir.

T.K. Kovalenok, K.Davlatov, O.Qo'ysinov va boshqalarning ishlari umumta'lim fanlari, ayniqsa mehnat ta'limi fanini o'qitishda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borishining metodik asoslariga bag'ishlangan. (28). Bunda kasb-hunarga yo'naltirishning diagnostik va tarbiyaviy konsepsiyalari keng tarqalganligi e'tirof etilgan. Birinchi konsepsiya bo'yicha kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi qobiliyatlar va boshqa psixologik xususiyatlarni aniqlashdan iborat bo'lib. bu xususiyatlarning rivojlanish darajasi kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlab beradi.

Bir qator olimlar (S.G.Gellershteyn, N.D.Levitov, B.M.Teplov, YE.A.Klimov, V.V.Chebisheva, A.I.Sherbakov va b.sh.q.) tomonidan ishlab chiqilgan tarbiyaviy konsepsiyaga muvofiq kasb-hunarga yo'naltirishdagi asosiy

o‘rin o‘quvchilarning mehnat tarbiyasiga, ularda tegishli qobiliyatlar, qiziqishlar va moyilliklarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Bunday yondashuv shaxsiy xususiyatlarni tashxis qilishni ham o‘z ichiga oladi va bu jarayonni boshqarishni ko‘zda tutadi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish sohasida nashr qilingan adabiyotlar, ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borgan olimlar R.Jo‘rayev, H.Rashidov, V.Soy, Y.Asadov, va boshqalarning ishlarini tahlil qilish natijasida umumta’lim maktablari o‘quvchilarini samarali kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratligi ma’lum bo‘ldi.

1. Umumta’lim maktablari o‘quvchilariga butun maktab davri davomida kasbiy axborotlar va kasbiy ma’lumotlarni berib borish. Bunda o‘quvchining yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mavjud kasblar va bandlik sohalaridagi mehnat faoliyati sohalarini tushuntirish, kasblar va ularning qo‘llanilishi, xar bir kasbning inson faoliyatida qo‘llanilishining ahamiyati xaqida axborotlar berish.

2. O‘quvchilarni birinchi sinfdan boshlab psixologik-pedagogik tashxis qilish yordamida ularning qobiliyatlari, imkoniyatlari va qiziqishlarini o‘rganish.

3. Psixologik-pedagogik tashxis natijalarini tahlil qilish asosida o‘quvchilarga zarur maslahatlar berish, ularning psixologik muammolarini korreksiya qilish, va pirovard natijada o‘larning imkoniyatlari va moyilliklari doirasida to‘g‘ri kasb tanlashlariga erishish.

Yuqorida keltirilgan bosqichlardagi ishlarning asosiysi psixologik-pedagogik tashxis tizimiga tegishlidir. Turli psixologik-pedagogik metodikalarni qo‘llash yordamida tashxis qilish mobaynida xar bir o‘quvchining o‘ziga xos tug‘ma xususiyatlari, psixofiziologik qobiliyatlari, layoqatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari aniqlanadi. Psixologik-pedagogik tashxis doimiy ravishda bosqichma-bosqich olib boriladi va uning natijalari o‘quvchining xar bir yosh davriga mos ravishda tahlil qilinadi (1-rasm).



1- rasm. Psixologik-pedagogik tashxis ishlarni olib borish sxemasi.

Psixologik-pedagogik tashxis ishlari birinchi navbatda maktab psixologlari tomonidan olib boirladi va bunda asosiy tamoyil sifatida quyidagilarni etiborga olish talab etiladi.

- Tashxis ishlari ilmiy asoslangan, tajriba-sinovdan o'tkazilgan metodikalarni qo'llash;
- Tashxis davrida shaxsning xususiyatlarini etiborga olish va unga psixologik ziyon yetkazmaslik choralarini ko'rish;
- Tashxis natijalarining sir tutilishini ta'minlash.

Psixologik-pedagogik tashxis ishlari kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining ajralmas qismi bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek, o'quvchilarni to'ri kasb tanlashlarida, kelajakda o'z o'rinlarini topib olishlarida yordam beradi.

Ko'pchilik yoshlarda bozor munosabatlari, o'zi egallayotgan kasb-hunar imkoniyatlari to'g'risida ko'proq xayoliy ta'surotlar ustunlik qiladi. Amaliy kasbiy faoliyatga kirishib borishning birinchi davridayoq bu tasavvurlarning amalga

oshmasligi natijasida yoshlarda hadiksirash, jur'atsizlik bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-psixik holatni vujudga keltiradi.

Bu boradagi yuzaga kelgan masalalarning yechimini topishda kasbga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlaridan kengroq foydalanish talab etiladi. Jumladan, kasbga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda o'qitish maqsadlari va mazmuniga asoslangan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asos vazifasini o'taydi.

Kasbga yo'naltirishning asosiy nazariy va shu bilan birga natijaviy vazifasi shundan iboratki, u o'sib kelayotgan avlodni, ya'ni maktabdanoq individda kasb tushunchasini paydo qilib, undagi moyillik va qiziqishni yuzaga chiqarib, uning imkoniyatlari qay darajada va uning bajarayotgan ishiga yoki tanlagan kasbi bilan uning tayyorganlik va tayyorlanganlik darajasi o'rtasida uzilish va noratsional uzviylik davom etmayotganini aniqlashdan iborat.

Kasbga yo'naltirish deganda shaxs kasb tanlashda uni qiziqishlari, ayni paytda jamiyatda shu kasbga bo'lgan ehtiyoj va shu bilan birga shaxsda shu ehtiyojlarga asoslanga xolda imkoniyatlari darajasini xisobga olib unga kasbiy maslahat, kasbiy adaptatsiya va psixologik metodikalarni taqdim etish asosida uni u yoki bu kasbga yo'naltirish va yordam ko'rsatish tushuniladi.

Kasbga yo'naltirishning turli nazariy izohlari orasida xozirgi vaqtda ikkita eng muxim tushunchani ko'rsatish mumkin, bular:

- An'anaviy (diagnostik);
- Zamonaviy (rivojlantiruvchi).

An'anaviy (diagnostik) kasbga yo'naltirish nazariyasining asosiy vazifasi shaxsda kasbiy moyillikni undagi psixologik xususiyatlar va shaxsiy ehtiyojlarini solishtirish yo'li bilan aniqlash. Bunda asosiy mas'uliyat kasbiy konsultantga yuklanadi. U test o'tkazish yo'li bilan va ulardan olingan natija asosida shaxsni u yoki bu kasbga moyiliigini aniqlaydi. Bu xolda shaxs, ya'ni taxlim oluvchi passiv rolini o'ynaydi.

Zamonaviy (rivojlantiruvchi) kasbga yo'naltirish konsepsiyasi shaxsning o'z kelajagini aniqlashda faol ishtirokini nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor

shaxsning turli xil soxalarni egallashi jarayonida undagi rivojlanishni aniqlashga qaratiladi. Kasbga yo‘naltirish o‘quv-tarbiyaviy ishlarining qismi sifatida ko‘riladi. Kasb tanlashga tayyorgarlik esa shaxsga jamiyat tomonidan ta’sir etuvchi bir tarbiyaviy tizim asosida ko‘riladi.

“Kasbga yo‘naltirish tizimi” tushunchasini ko‘rib chiqishdan oldin, avvalo, unga tegishli bo‘lgan va unga aloqador tushunchalarga aniqlik kiritishimiz lozim. Birinchi navbatda “kasb” tushunchasini ko‘rib chiqamiz. Ushbu terminni aniqlashda YE.A.Klimov to‘rt yondashuvdan foydalangan, bular:

- 1) Inson o‘z mehnat funksiyalarini bajaradigan muhit;
- 2) Aniq bir soxada ish olib boradigan insonlar hamjamiyati;
- 3) Tayyorgarlik, ya’ni barcha bilim va malakalari yordamida shaxsning aniq bir mehnat funksiyalarini bajara olishi;
- 4) O‘z kasbining mutaxassisi, professional, ya’ni vaqt bo‘yicha taqsimlangan mehnat funksiyalarini bajarish jarayoni.

Kasbga yo‘naltirish tushunchasi bilan bog‘liq keyingi tushunchalar bu «optant» va «optatsiya». YA’ni, optatsiya – kasbiy rivojlanish yo‘lini tanlash bo‘yicha qabul qilingan yechim, bunda optant – shu yechimni qabul qilgan shaxs deb ataladi.

Kasbga yo‘naltirish tushunchasi mazmunini yanada chuqurroq anglash uchun yana bir tushuncha, ya’ni insonning o‘zi uchun moyil bo‘lgan kasbni tanlash jarayoniga e’tibor qaratish kerak. O‘z uchun qay bir kasb to‘g‘ri kelishini anglash jarayoni – bu davomiy va ko‘p bosqichli insonning shaxsiy kasb tanlashga qo‘yilgan rejalari asosida o‘zi uchun moyil bo‘lgan aniq bir kasb tanlash jarayoni deb tushuniladi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iborat bo‘ladiki, shaxs ma’lum bir tayyorgarlik bosqichidan o‘tgandan keyin, ya’ni o‘rta maktab bosqichidan keyingi bosqichga o‘tish davridan o‘z qiziqishlari, o‘zi uchun kelajakda u yoki bu kasbda band bo‘lish rejalari asosida to‘g‘ri kasb tanlashi lozim bo‘ladi. Bunda unga, kasb tanlashi uchun yo‘l ochib beradigan, unda kasblar dunyosi bilan tanishish va ular xaqida tasavvurga ega bo‘lish uchun yordam beradigan bir qator metodlar mavjud.

Yoshlarni kasbga yoʻnaltirish jarayonida turli xil metodlardan foydalanilishi mumkin, bular:

- axborotli – dasturlar, bukletlar, reklama, agitatsiya va x.k.z.;
- maʼrifatli;
- tashkilotlarga ekskursiyalar uyushtirish – bevosita tashkilotlarga borib, ularda ish jarayoni, tartibi va ish yuritiladigan soha bilan tanishish;
- kasbga oid filmlar va videoroliklar koʻrsatish – dars jarayonida, yoki maʼlum bir ajratilgan kurslar davomida oʻquvchi yoshlarni kasblar olami bilan tanishtirish maqsadida ularga shu mavzuga oid filmlar va videoroliklar qoʻyib berish;
- mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil qilish – kasbga yoʻnaltirish va u bilan bevosita ish yuritadigan mutaxassislar, korxona va tashkilotlarning vakillari bilan uchrashuvlar;
- kasbga yoʻnaltirish kursidan maxsus darslar oʻtkazish – kasbga yoʻnaltiruvchi pedagog, konsultant va psixologlarni jalb qilgan xolda yoshlarga kasbga oid maʼlumotlar taqdim etish, ularda shaxsiy qiziqishlarini savol-javob, test va boshqa turli yoʻllar bilan aniqlab, ularga toʻgʻri yoʻl koʻrsatish.

Aslida, kasbga yoʻnaltirishda foydalaniladigan metodlar yuqorida taqdim etilgan roʻyxatdan koʻp, lekin keltirilgan metodlar asosiy va bu yoshdagi yoshlarni kasb tanlashida oson boʻlgan yondashuv sifatida koʻriladi.

Kasbga yoʻnaltirish nazariyasidan kelib chiqadigan asosiy ***prinsiplar*** quyidagilardan tashkil topadi:

- Shaxsiy va ommaviy qiziqishlar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish;
- Kasbni erkin tanlovi va yoshlarning egallamoqchi boʻlgan kasblariga nisbatan imkoniyat darajalari orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish;
- Psixologik-pedagogik tashxis va kasbga yoʻnaltirish metodlari va usullari shakllarini ilmiy isbot topgani;
- Barcha maʼlumot turlarini kasb va oʻqish shakllarini tanlashga, va ishga joylashuvga nisbatan erkinligi;
- Kasbga yoʻnaltirishning kompleksli xarakteri.

Ushbu tushunchaning ko'pqirraliyli shundan ifodalanadiki, turli ilm yo'nalishlari uni o'ziga xos bo'lgan qarashlar bilan ta'rif berishadi. Misol uchun, pedagogika ilmiy yo'nalishi vakillari kasbga yo'naltirish ostida maktablarni pedagogik jamoa, kasb-hunar ta'limi muassasalari, oila va jamiyatlar faoliyatini nazarda tutishadi. Ular olib boradigan faoliyat o'quvchi yoshlarni to'g'ri kasb tanlashlarida ularni shaxsiy qiziqishlari, imkoniyatlari, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlashdan iborat.

Psixolog olimlar esa kasbga yo'naltirishni o'sib kelayotgan xar bir yosh avlod vakillarini o'z qarashlari va qiziqishlarini nazarda tutgan xolda kasb tanlashlariga yordam ko'rsatadigan psixologik-pedagogik va tibbiy chora-tadbirlar tizimini tushunishadi.

Yuqorida aytib o'tilgan ta'riflarning mazmuni kasbga yo'naltirish deb yosh avlodni kasb tanlashiga yordam ko'rsatiladigan faoliyat tushuniladi.

Sotsiomadaniy modernizatsiya va milliy iqtisodiyotimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi sababli shaxsning kasbiy o'zini o'zi namoyon qilishi va jamiyatda o'z o'rnini egallashi muammosiga yanada ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu sharoitda, kasbga yo'naltirish yangi insonning shakllanishi, xar bir shaxsning o'z imkoniyatlarini o'zi uchun va jamiyatga nisbatan yuqori foyda bilan sarf qilishi uchun muxim omil sifatida o'z aksini topadi. O'zgacha so'z bilan aytganda, o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish muammosi o'z ichida psixologik, pedagogik va sotsial-iqtisodiy yondashuvlarini xamnafas qilgan xolda bir yo'nalish, ya'ni yoshlarni to'g'ri kasb tanlashi yo'lida xizmat qilishi zarur.

Kasbga yo'naltirishning shaxsga nisbatan bo'lgan aspekti birinchi navbatda shaxs o'ziga ongli ravishda kasb tanlashi bilan bog'liqligida aks etadi. Shuning uchun, eng muxim vazifa, o'spirinda mustaqil qaror qabul qilish fazilatini shakllantirish va rivojlantirish, u o'zi uchun, uning qizishlari va kelajagini qanday tasavvur qila olishi va barcha jixatlarni inobatga olgan xolda u yoki bu kasbni tanlashida o'z fikriga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Psixologlar tomonidan yuqorida keltirilgan fikrga nisbatan shunday jumla keltiriladi: *"Inson, avvalam bor, birinchi navbatda o'ziga quloq solmasa, u xech*

qachon xayotida muxim bo'lgan to'g'ri tanlovni amalga oshira olmaydi", ya'ni inson, birinchi navbatda, biron bir o'zi uchun muhim bo'lgan, shaxsiy tanloviga nisbatan bir qaror qabul qilishidan avval, o'ziga quloq solishi lozim.

Biz tomonimizdan kasbga yo'naltirish tushunchasi shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Bunday o'zaro bog'liqlikning natijasi shaxsning kasbiy o'zini o'zi anglash ko'riladi.

Ushbu yondashuvning o'ziga xosligi, u shaxsning kasbiy o'z o'zini anglashi uning o'ziga nisbatan kelajakdagi kasbiy faoliyatining subyekti sifatida shakllanishini o'rganadigan jarayon bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida u shaxsni kasbini o'zgartirishi, hayotga va boshqa kasbga moslashuviga tayyorlash jarayoni sifatida ko'riladi.

Shuni aytib o'tish lozimki, kasbga yo'naltirish ishlarining eng samaradorli shakllari qo'llanilgan xollarda ham, barcha o'quvchi yoshlar ongli ravishda kasb tanlashadi deb bo'lmaydi, shuning uchun kasb tanlashga tayyorgarlik darajasini o'rgangan xolda profilli guruhlarini imkon qadar ertaroq aniqlash lozim.

Qaror qabul qilish darajasi bo'yicha o'quvchi yoshlarni profillash kasb tanlashda vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash va baholashdan boshlanadi. Tushunchaga aniqlik kiritish uchun profilli guruhlarining quyidagi taqsimotini ko'rishimiz mumkin:

Birinchi guruh – tanlab, tegishli qarorga kelgan o'quvchilar;

Ikkinchi guruh – u yoki bu kasbga qiziqish bildirib, tanlashga tayyor turgan o'quvchilar;

Uchinchi guruh – tanlashda faollik ko'rsatgan, ammo biror kasbga qiziqish bildirmagan o'quvchilar;

To'rtinchi guruh – kasb tanlashga motivatsiyasi bo'lmagan o'quvchilar.

Yuqorida keltirilgan taqsimotga asoslanib, kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoniga yondashuv sifatidagi ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida, o'quvchi yoshlarni o'z o'zini anglashi va qiziqishlarini aniqlash, tizimning rivojlanishi va kasbga yo'naltirish jarayonining samaradorligini oshirishning fundamental asosi sifatida, avvalam bor, o'quvchi yoshlarda kasbiy

faoliyat, unga bo'lgan motivatsiya, ya'ni qiziqishlarining shakllanishi uchun ularda shunga yetarli darajada psixologik tayyorgarlikni shakllantirish lozim. O'quvchi yoshlarning kasb-hunarlarni to'g'ri tanlashlariga bo'lgan psixologik tayyorgarligini ta'minlash maktab psixologining yetarli kasbiy kompetentligi mavjud bo'lishini, jarayonga psixologik-pedagogik metodikalarning to'g'ri qo'llanilishini talab etadi.

1.2. O'zbekistonda kasb-hunarga yo'naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishi

O'zbekiston Respublikasida xozirgi kunda xalq xo'jaligining barcha sohalarida bozor iqtisodiyotining shakllanishi va jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida fan-texnika, texnologiyalarning jadallashishiga, ya'ni fan va texnika taraqqiyotining tezlashuviga olib kelmoqda.

Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimining yangi modeli qabul qilinganligi munosabati bilan umumta'lim maktablari bitiruvchilarining barchasi keyingi majburiy ta'lim turi bo'lgan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga to'liq qamrab olinishlari lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflarini bitirgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o'qishni davom ettirishning majburiyligi va ta'lim yo'nalishlarini o'quvchilar tomonidan tanlashning ixtiyoriyligi o'rtasidagi ziddiyatli muammo kasb-hunarga yo'naltirish tizimini shakllantirish va uni samarali rivojlantirishning lozimligini talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali, yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishga qaratildi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni to'laqonli amalga oshirish, o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga samarali o'tishlarini ta'minlash

maqsadida umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish tizimi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyuldagi «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 372-sonli qaroriga asosan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis samaradorligini oshirish, ularni psixologik-pedagogik tashxis qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, amalga tatbiq etish maqsadida Xalq ta'limi vazirligining 2006 yil 17 martda «O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazining tashkiliy va metodik asoslarini takomillashtirish to'g'risida»gi 60-sonli buyrug'i asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning zamon talablari darajasida, ilmiy-metodik kengashi, o'quv meyoriy hujjatlarini yangi tahriri ishlab chiqildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinflari bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga izchil o'tkazish, bitiruvchilarni akademik ditseylar va kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo'nalishlariga to'liq qamrab olishni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi qarori bilan O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi va uning barcha viloyatlardagi hududiy bo'linmalari tashkil etilgan.

Respublika Markazi va uning hududiy bo'linmalari Xalq ta'limi vazirligi tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi. Shahar va tumanlardagi markazlaridagi kasbga yo'naltirish Markazlari, mahalliy byudjet hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi. O'zbekistonda Xalq ta'limi Vazirligi doirasida bitta Respublika, 14 ta hududiy va 200 ga yaqin shahar, tuman o'quvchilarni kasbga yo'naltirish markazlari ishlab turibdi. Barcha umumiy o'rta ta'lim maktablariga (jami bo'lib 9661 ta) psixolog lavozimlari kiritilgan.

Markaz faoliyatining asosiy maqsadi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik-pedagogik tashxis qilish,

ularning isteodod, qiziqish va moyilliklarini aniqlashning tashkiliy, ilmiy, metodik axborot, dasturiy ta'minotini amalga oshirishdan iborat.

Markazning bosh vazifalari quyidagilardir:

- Umumta'lim maktablarining 9-sinflari bitiruvchilari va yoshlarni turli tayyorlov yo'nalishlaridagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga yo'naltirishning ilmiy va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqish va joriy etish;

- Viloyat, tuman, shahar xalq taolimi bo'limlarida tashkil etilgan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish, ilmiy-metodik va maslahat xizmatlarini tashkil etish, xududiy Markazlar faoliyatini belgilovchi metodik, meyoriy-huquqiy hujjatlar va tavsiyanomalar ishlab chiqish;


- Umumiy o'rta taolim maktablari bitiruvchilarining qiziqishlari, layoqat va aqliy qobiliyatlarini tashxis etishda qo'llaniladigan psixologik tashxis metodikalarini ishlab chiqish va tatbiq etish;

- Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va umumta'lim maktablari o'quvchilariga zamonaviy ishlab chiqarish turlari, kasblar, mehnat bozoridagi holat, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari, kasblar bozorining mazmuni va istiqbollari, ularni o'zlashtirish shart-shakllari, qo'yiladigan talablar hamda mehnat faoliyati jarayonida kasbiy malakalarning o'sib borishi bo'yicha kasbiy axborotlar va maslahatlar berishni tashkil etish;

- Umumta'lim maktablari o'quvchilariga ularning psixo-fiziologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari hamda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib o'rta maxsus, kasb-hunar taolimi muassasasi (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji) tayyorlov yo'nalishlariga tavsiyalar berishni tashkil qilish;

- O'quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga psixologik-pedagogik jihatdan tashxis qo'yish, ularning qobiliyati va moyilligini aniqlash, tashxis natijasida yetuk deb hisoblangan bolalarni olti yoshdan boshlab maktabga qabul qilish to'g'risida tavsiyanomalar berishni tashkil qilish;

- O'quvchilarni har yili tibbiy tekshiruvdan o'tkazishni tashkil etish va nazorat qilish;
- O'quvchilar va ularning ota-onalariga ta'lim, tarbiya va ijtimoiy moslashtirish jarayoni haqida psixologik-pedagogik yordam va maslahatlar berish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va ularda mavjud ta'lim yo'nalishlari haqida ma'lumotlar bankini yaratishni tashkil etish;
- Markaz vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha manfaatdor tashkilotlarni jalb etgan holda konsepsiyalar va dasturlar ishlab chiqish
- Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlik darajasi va sog'lomlik holatini aniqlash hamda ularni sog'lomlashtirishni ta'minlovchi tegishli meyoriy hujjatlar, yo'riqnomalar, metodik qo'llanmalar yaratish va tatbiq qilish;
- O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, kasb tanlash va kasbiy ta'lim berish hamda ularni ijtimoiy himoyalash masalalarida tegishli vazirliklar va tashkilotlarga takliflar kiritish;
- Iste'dodli, shuningdek aqliy va jismoniy rivojlanishida nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashning ilg'or tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va tatbiq etish choralari ko'rish;
- Iste'dodli bolalar va yoshlarning iste'dod yo'nalishlariga qarab ma'lumotlar bankini yaratish, ularga huquqiy, pedagogik, psixologik, ma'naviy va boshqa sohalarda maslahatlar uyushtirish bo'yicha metodik, meyoriy-huquqiy hujjatlar va yo'riqnomalar ishlab chiqish;
- Faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ma'lumot-axborot manbalarini yaratish;
- Markazning faoliyati doirasida yuqori ko'rsatgichlarga erishgan xodimlarni tarmoq va hukumat mukofotlari bilan rag'batlantirish haqida Xalq ta'limi vazirligiga takliflar kiritish;
- Xodimlarning malakasini oshirish ishlarini tashkil qilish;
- O'quvchilar, yoshlar va fuqarolarga turli xildagi psixologik-pedagogik tashxis va maslahat xizmatlari ko'rsatish.



2-rasm. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis tizimining tuzilmasi

O'zbekiston Respublikasida kasb-hunarga yo'naltirish tizimi quyidagicha shakllanadi:

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi – kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etish, fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, hududiy Markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga ilmiy-metodik va maslahat xizmatlarini ko'rsatish, mamlakatimiz va xorij tajribalarini umumlashtirish va tatbiq etish, kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash, o'quvchi yoshlarga ko'rsatilishi lozim bo'lgan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining mazmuni va turining eng kam miqdorini aniqlaydi shuningdek, kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy, nazariy, amaliy, uslubiy ta'minoti va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazlari yuqori tashkilotlar va Respublika tashxis Markazining topshiriq va ko'rsatmalarini tuman, shahar tashxis Markazlarida bajarilishini ta'minlaydi, ular faoliyatini muvofiqlashtiradi, ilmiy- uslubiy, amaliy ta'minotini amalga oshiradi, tahlil qiladi, hisobotlar tayyorlaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tuman va shahar tashxis Markazlari o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qiladi, muvofiqlashtiradi, tahlil qiladi va hisobotlar tayyorlaydi, ilmiy-uslubiy ta'minotini amalga oshiradi. Ta'lim muassasalaridagi kasb-hunarga yo'naltirish komissiyalari faoliyatini nazorat qiladi, boshqaradi. Umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish xonalarini tashkil etishni nazorat qiladi, o'quvchilar bilan maxsus metodikalar asosida o'tkazilgan tashxis ishlarini umumlashtiradi; 9-sinf bitiruvchilarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga yo'naltirish to'g'risida tavsiyanomalar berishni tashkil qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar tashxis Markazlari, shuningdek tuman, shahar tashxis Markazlari o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazining xududiy bo'linmalari hisoblanadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining **ishtirokchilari** quyidagilardir: o'quvchi; ota-onalar; ta'lim muassasasi; kasbga yo'naltiruvchi; kasb-hunarga yo'naltirish xizmati mutaxassislari; predmet o'qituvchilari; sinf rahbari; maktab shifokori; kutubxona mudiri; jamoat tashkilotlari; kasb-hunar ta'limi muassasalari; korxonalar; mehnat organlari, hududiy boshqaruv organlari (hokimlik) mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlari, ommaviy axborot vositalari.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedagog xodimlar hamda aholi o'rtasida (mahalla, ota-onalar) hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu ishlarning zamirida, o'quvchi yoshlarni kasbiy qobiliyati va layoqatini aniqlash asosida ta'limning keyingi turi va bosqichiga yo'naltirish, kasbiy qarorlarini shakllantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ularni to'g'ri kasb-hunar tanlashlarini to'laqonli yo'lga qo'yish alohida ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakllantirish – bu o'quvchi-yoshlarda ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarining amaliyotda malakali

mutaxassislar ko‘magida, kasbiy qiziqish va layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo‘llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hokazo)ni tarbiyalashga yo‘naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o‘quvchilarni kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli va individual shug‘ullanishni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Uning metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi ko‘zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Mavjud obyektiv va subyektiv omillardan unumli foydalana olish ham o‘quvchilarda kasb-hunarni to‘g‘ri tanlashlarishga hissa qo‘shadi.

Kasb-hunarga yo‘naltirishni tashkil etishga nisbatan texnologik yondoshuv – bu o‘quvchi – yoshlar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy kasbiy bilimlarni amaliy ko‘nikma va malakaga aylantirish, ularda faol kasbiy yo‘naltirishni tashkil etish tajribasini yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va moyilliklari asosida kasbiy qarorlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmui bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda aynan mazkur ta‘lim muassasalari orqali yoshlarni kasbga yo‘naltirish tizimini to‘g‘ri tashkil etish, uni aniq mexanizmini yaratish va faoliyatini yuritishga ehtiyoj sezilmoqda.

Kasbga yo‘naltirish deganda yoshlarni qiziqishlari, moyilliklari va shakllangan qobiliyatlariga ko‘ra va xalq xo‘jaligi, umuman, jamiyatning mutaxassislarga ehtiyojini hisobga olib ishga joylashtirishni optimallashtirishga qaratilgan psixologik-pedagogik va tibbiy tadbirlar majmui tushuniladi. Kasbga yo‘naltirish ta‘lim muassasalari tarbiyaviy ishining uzviy bir qismi sanaladi, zero kasb tanlash o‘zining ijtimoiy foydali mehnatda ishtiroki zaruriyatini anglash sifatida shaxs shakllanishining muhim shartidir.

Kasbga yo‘naltirishni ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tibbiy–fiziologik vazifalar majmui deb tushunmoq lozim, ularning maqsadi esa, har bir shaxsning individual xususiyatlari va jamiyatning kadrlar talablariga muvofiq keladigan kasbiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirishdir. Psixologik-pedagogik

vazifalar ichida birinchi galda professional axborot berish va kasbiy maslahat tilga olinadi. Kasbga yo‘naltirish maqsadini olib borishda ikki bosqich: dastlabki va chuqurlashtirilgan individual kasbiy maslahat bilan farqlanadi.

Dastlabki kasbiy maslahat – guruhda olib boriladigan maslahat, uning jarayonida kasb tanlash qoidalariga o‘rgatish, kasblar xilma – xilligi, qiziqishlar, moyilliklar haqida axborot berish amalga oshiriladi. Dastlabki kasbiy maslahat natijasi kasbiy reja shakllanishida yordam ko‘rsatish, tanlovning ongliligi va mas‘uliyatliligi darajasini oshirish sanaladi.

Kasbiy maslahatning maqsadi o‘quvchilarni kasbiy o‘z-o‘zini belgilash tahlili asosida u yoki bu ta’lim muassasasida o‘qishni davom ettirish emas, balki, bir tomondan, o‘quvchining qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga mos keladigan, boshqa tomondan respublika xalq xo‘jaligi tizimi uchun kerakli mehnat faoliyatini tanlashga yo‘naltirishdan iborat.

Chuqurlashtirilgan individual kasbiy maslahat insonni har tomonlama: uning moyilliklari, qiziqishlari, sog‘ligi va jismonan rivojlanishi, diqqat, tafakkuri darajasi va strukturasi, qo‘l mohirligi va harakatlari koordinatsiyasi, xarakter xususiyatlarini chuqur o‘rganishga asoslanadi. Bunda o‘qituvchilar va otalarning fikri, ta’limning muvaffaqiyatliligi va referent guruhi xususiyatlari hisobga olinadi. Mazkur ma’lumotlarni umumlashtirishga nafaqat kasbga yo‘naltirish maqsadida, balki yoshlarni shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir etuvchi omillardan biri deb qarash mumkin.

Respublikada kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilgani, umumta’lim maktablarida muayyan ishlar olib borilayotgani bilan bir qatorda tahlilirning ko‘rsatishicha bir muncha muammolar va yechimini topishi kutilayotgan vazifalar ham mavjudligi aniqlandi. (67,68)

Eng muhim muammo - umumta’lim maktablari bitiruvchilarini ta’limning keyingi bosqichi- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalariga ongli ravishda samarali jalb qilish va bitiruvchilarning barchasini ushbu ta’lim turining tayyorlov yo‘nalishlariga qamrab olishdan iboratdir.

Bu muammoning yuzaga kelishi shaxsning kasb tanlashda o'z o'zini anglashi, o'z-o'zini aniqlab olishi, o'zining kasb tanlashga bo'lgan muayyan imkoniyatlari, moyilligini va ayniqsa ongli ravishda kelajak kasbini belgilash istaklarini aniqlash vazifalarini dolzarb qilib qo'yadi.

Jamiyatning taraqqiyotining xozirgi bosqichida aynan samarali, rejali, ilmiy asoslangan, iqtisodiyot sohalarining ehtiyojlariga tayanadigan kasb-hunarga yo'naltirish ishlari o'quvchi yoshlarga beriladigan asosiy psixologik-pedagogik yordamni tashkil etadi.

Tahlillar ko'rsatadiki, xozirgi kunda xalq ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bir qator muammo va kamchiliklarga ega. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilayotgan psixologik-pedagogik tashxis ishlarining samaradorligi va natijaliligi yetarli darajada emas;

- yaratilgan va maktablarda qo'llanilayotgan psixologik-pedagogik tashxis metodikalarining va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tadbirlarning umumta'lim maktablari o'quvchilari orasida talab darajasida olib borilishi nazoart qilinmayapti;\

- tashxis markazlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni talab darajasida amalga oshirmayaptilar;

- maktablarda mehnat ta'limi fanini o'qitish, uning asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari yetarli yo'lga qo'yilmayapti;

- kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarini elektron-axborotli tizimiga o'tkazishning nazariy-metodik, meyoriy va didaktik asoslari ishlab chiqilmagan;

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'zlarida amalga oshirilayotgan ta'lim yo'nalishlariga o'quvchilarni jalb qilish borasida yetarli ishlarni amalga oshirmayaptilar;

- Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarida ta'limning boshqa barcha turlari, korxona va tashkilotlar, kasaba uyushmalari va mahalliy xokimiyatlar o'rtasida

ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish sohasida amaliy tadbirlar amalga oshirilmayapti;

- Yangi, samarali, ilmiy asoslangan psixologik-pedagogik tashxis metodikalarini yaratish, ularni amaliyotga joriy qilish borasida yetarli ishlar olib borilmayapti;

- Hududiy kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari mutaxassislarining malakasi ko'pchilik hollarda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda yetarli bo'lmayapti, ularni kadrlar bilan ta'minlash masalasiga yetarli e'tibor berilmayapti.

Umumiy o'rta ta'lim va O'MKHT muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilish, xar tomonlama barkamol rivojlangan shaxsni tarbiyalash umumta'lim maktablari O'MKHT muassasalari o'rtasida yaqin hamkorlikni rivojlantirish asosidagina amalga oshishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarining keyingi ta'lim bosqichiga samarali qamrab olinishining keyingi yillardagi tahlili bu sohada bir qancha ziddiyatli holatlar yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Bular:

- jamiyatdagi tezkor rivojlanish holatidan kelib chiqqan holda yuqori malakali mutaxasislarni tayyorlash ehtiyojlari va umumta'lim maktablari o'quvchilarining ko'pchiligida kasbiy yo'nalganlikning shakllanmagani yoki shakllantirilmaganligi o'rtasida;

- kasb-hunarni tanlashda o'quvchilarga qo'yiladigan ongli ravishda kasb tanlashga bo'lgan talablar va ularning kasb- hunarlar to'g'risida ma'lumotlilikining yetarli emasligi o'rtasida;

- shaxsning o'z-o'zini kasbiy aniqlashi va tanlovni amalga oshirishdagi ehtiyojlari va xozirgi kunda o'tkazilayotgan kasb-hunarga yo'naltirish ishlaridagi kamchiliklar o'rtasida;

- maktablarda o'quvchilarning o'z shaxsiy psixologik tavsiflarini aniqlashga bo'lgan ehtiyojlari va mavjud psixologik-pedagogik tashxis metodikalarining yetarli va samarali emasligi o'rtasidagi ziddiyatlarni tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda o'quvchilarni psixologik-pedagogik tashxis qilish va kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

1. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni psixologik-pedagogik tashxis qilishning samarali metodlari va vositalarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangi innovatsion metodlar va metodikalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiq qilish.

2. Hududiy tashxis markazlari va umumta'lim maktablarining amaliy psixologlari hamda kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxasislari tarkibini tahliliy ko'rib chiqish va ularning malakasini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

3. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilishning elektron-axborotli tizimini yaratish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

4. Kasb-hunarga yo'naltirishda ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash.

5. Maktablardagi kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik pedagogik tashxis xonalari moddiy-texnika negizini mustahkamlash.

Yuqoridagi tadbirlarning amalga oshirilishi umumta'lim maktablari bitiruvchilarini samarali kasb-hunarga yo'naltirish, ularning keyingi ta'lim yo'nalishlari bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga xizmat qiladi.

I BOB BO'YICHA XULOSALAR

1. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi vazifalari doirasida olib borilgan tadqiqotlar, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish sohasida nashr qilingan adabiyotlar, mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan olimlarning ishlarini tahlil qilish natijasida umumta'lim maktablari o'quvchilarini samarali kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy bosqichlari aniqlandi. Bu bosqichlar umumta'lim maktablari o'quvchilariga butun maktab davri davomida kasbiy axborotlar va kasbiy ma'lumotlarni berib borishni ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunday ishlar o'quvchining yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mavjud kasblar va bandlik sohalaridagi mehnat faoliyati sohalarini tushuntirish, kasblar va ularning

qo'llanilishi, xar bir kasbning inson faoliyatida qo'llanilishining ahamiyati xaqida axborotlar berishni o'z ichiga oladi.

2. Kasb-hunarga yo'naltirishning o'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab psixologik-pedagogik tashxis qilish yordamida ularning qobiliyatlari, imkoniyatlari va qiziqishlarini o'rganish tizimi psixologik xizmatning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish va tadbiq qilish asosida amalga oshiriladi..

3. Psixologik-pedagogik tashxis natijalarini tahlil qilish asosida o'quvchilarga zarur maslahatlar berish, ularning psixologik muammolarini korreksiya qilish, va pirovard natijada o'larning imkoniyatlari va moyilliklari doirasida to'g'ri kasb tanlashlariga erishish maqsad qilib olinadi.

Turli psixologik-pedagogik metodikalarni qo'llash yordamida tashxis qilish mobaynida xar bir o'quvchining o'ziga xos tug'ma xususiyatlari, psixofiziologik qobiliyatlari, layoqatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari aniqlanadi.

4. Tahlillar natijasida, respublikada kasb-hunarga yo'naltirish ishlari tizimli yo'lga qo'yilgan, umumta'lim maktablarida muayyan ishlar olib borilayotgani bilan bir qatorda bir muncha muammolar va yechimini topishi kutilayotgan vazifalarning ham mavjudligi aniqlandi.

5. Kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy asoslaridan kelib chiqadigan asosiy tamoyillar aniqlandi.

6. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinflari bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga izchil o'tkazish, bitiruvchilarni akademik ditseylar va kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo'nalishlariga to'liq qamrab olish ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi qarori bilan O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi va uning barcha viloyatlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

7. Tadqiqot davomida kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish tizimi o'rganildi, uning faoliyatidagi kamchilik va muammoli

vaziyatlar aniqlandi hamda tizim ishini takomillashtirish bo'yicha takliflar shakllantirildi.

II-BOB. MEHNAT TA'LIMI JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH METODIKASI

2.1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning metodik asoslari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko'nikma, malakalarini, mehnatga qiziqish, mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga o'rgatish hamda kasb tanlashga tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat.

Ushbu asosiy maqsad ichida kasb-hunarlar asoslarini (texnologiyasini) o'rgatish, kasb-hunarlarni tanlash bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratish, ularning kasbgacha tayyorgarligini rivojlantirish, kasb-hunar asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy talablar darajasida bo'lishini ta'minlash muhim rol o'ynaydi.

Maktabda mehnat ta'limidan o'tkaziladigan mashg'ulotlar ichida kasb-hunarga yo'naltirish yo'nalishida quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi: (47)

- o'quvchilarda dastlabki nazariy va amaliy mehnat tajribalarini hosil qilish, zamonaviy texnika borasidagi bilimlari doirasini yanada kengaytirish, ularni kishilar mehnati va mehnat jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga tayyorlash;

- o'ziga topshirilgan har qanday ishni uddalay bilish, mehnatning o'ziga xos madaniyati va uning nazariy asoslarini egallash, o'z ishini va o'rtoqlarining ishlarini rejalashtirish hamda tashkil eta olishga o'rgatish;

- o'quvchilarni mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida aqlli, odobli, yaxshi ahloqiy sifatlar shakllangan, did-farosatli hamda jismonan sog'lom qilib tarbiyalashni amalga oshirish.

Mehnat ta'limi fanining mazmunida shartli ravishda 5-9 sinflardan boshlab

o'quvchilar kamida uchta yo'nalish bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari nazarda tutiladi.

Mehnat ta'limining yo'nalishlaridan tegishlisi maktab atrofidagi hududlarda joylashgan korxonalar, tashkilotlar va kasb-hunar kollejlari keng tarqalgan kasbiy sohalarga muvofiq tanlab olinadi. Har bir maktabda mehnat ta'limining quyidagi yo'nalishlaridan tegishlilari asos qilib olinadi:

- Texnologiya va dizayn;
- Servis xizmati;
- Qishloq xo'jalik asoslari.

Ushbu ta'lim yo'nalishlari mazmunan xalq hunarmandchiligi, ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo'naltirish bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

O'quv rejasiga ko'ra, mehnat ta'limining barcha yo'nalishlari bo'yicha 5 va 6 – sinflarda 6 kun (24 soat), 7-sinfda 10 kun (40 soat) 8-sinfda 16 kun (96 soat), jami 160 soat amaliyot o'tkazish rejalashtirilgan.

Mehnat ta'limi fani o'quv dasturida "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati", "Qishloq xo'jaligi asoslari" yo'nalishlari uchun 8-9 sinf sinflarda jami 34 soat ajratilgan. Shundan 8-sinfda: "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi" bo'limi-14soat; "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi-16soat; "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limi-4soatni tashkil etadi.

9-sinfda: "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi" bo'limi-10soat; "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi-16soat; "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limi-8soat.

8-sinfda o'quvchilar kasblar tasnifi, kasb tiplari, kasb-hunar kollejlari yo'nalishlari va kasblar bo'yicha inson salomatligiga qo'yiladigan talablar haqida umumiy ma'lumotlarga yega bo'ladilar. YA'ni 8-sinfda o'quvchilar kasb tanlashga tayyorgarlik ko'rish va qiziqishi, qobiliyati, salomatligi va yehtiyojga ko'ra kasb tanlashni o'rganadilar. Shuning uchun 8-sinfda o'quvchilarga to'g'ri kasb tanlashlari uchun barcha kerakli ma'lumotlar berish va ulardan to'g'ri xulosalar chiqarishni o'rgatiladi.

9-sinfda o'quvchilar kasb tanlashga doir reja tuzishni, kasb tanlashdagi xato va qiyinchiliklar, kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli, kasbni yegallash va kasb faoliyatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Bitiruvchilarning kelgusidagi o'quv faoliyatlarini to'g'ri tanlashlarida kasb tanlashga yo'llash darslarini to'g'ri, mazmunli va samarali o'tkazilishi katta ahamiyatga ega.

Mehnat ta'limi darslarida kasb-hunarga yo'naltirish bo'limi bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari kerak:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning kasbni to'g'ri tanlashining ahamiyati, turli xil kasblarning insonga qo'yadigan talablari;
- kasblar olami, kasblar shajarasi, O'zbekiston xalq xo'jaligidagi muhim kasblar, tayyorlov yo'nalishlari tasniflagichi;
- kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi;
- kasblarning mehnat shart-sharoitlari, vositalari, predmeti, maqsadi bo'yicha shajaralanishi;
- o'quvchilarning o'z qiziqish va moyilliklari, xarakterining o'ziga xos xususiyatlari, psixikasi, o'z qobiliyat va ehtiyojlarini aniqlashi;
- mehnat bozori talablari asosida kasb-hunarlarga bo'lgan ehtiyojning o'zgarib borishi;
- o'qishni davom yettirish imkoniyatlari;
- kelgusidagi mavqei.

O'quvchilar kasblarni tahlil qila olishi; o'zlarining shaxsiy sifatleri, qiziqishi va salomatlik darajalarini to'g'ri baholay olishlari, kasblarning insonga qo'yadigan talablari bilan o'zlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari, shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishlari zarur.

Kasb hunarga yo'naltirish darslarida axborot, pedagogik va ta'lim texnologiyalarini to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarga mavzu bo'yicha batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishi, ularni taxlil eta olishi va amaliy tadbiriq etishlariga erishiladi. Darslarda qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumot berish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni kasblarni aks ettiruvchi rasmlar, videofilmlar, diafilmlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Darslarda

pedagogik texnologiyalar, rolli o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchilarda kasblarning turkumlari, tiplari va kasblarni egallash uchun reja ishlab chiqishda mustaqil fikr yuritishlariga erishiladi.

Bunga misol qilib, 8-sinflar uchun mehnat ta'limi darslarida kasb-hunarga yo'naltirish bo'limi mazmunini keltirish mumkin. (1-jadval)

1 – jadval.

8-sinf uchun innovatsion dars ishlanmalari.

Mavzu	Kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining (odam-tabiati, odam-texnika, odam-odam, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz) ta'rifi
-------	--

Nazariy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

O'quvchilar soni:	Vaqt – 1soat
Dars shakli	Nazariy
Mashg'ulot rejasi	1. Qiziqishlarni aniqlash maqsadida anketa so'rovini o'tkazish. 2. Kasblarning «odam-odam»; «odam-texnika», «odam-belgili tizimi»; «odam-tabiati»; «odam-badiiy obraz» belgilarini qisqacha tushuntirish. 3. Umumiy suhbat davomida o'quvchilarning ta'lim muassasasi atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida eng ko'p tarqalgan har xil tipdagi kasblarga oid bilimlarni mustahkamlash
Dars maqsadi: O'quvchilarga "kasb" tushunchasining ma'nosini yoritib berish, ularni kasblarning tasniflari bilan tanishtirish. O'quvchilarga har bir soha kasblarining jamiyatda tutgan o'rnini haqida ma'lumot berish. Muayyan tipdagi kasbga moyillikni aniqlash.	
Pedagog vazifalari: 1. Kasblarning «odam-odam»; «odam-texnika», «odam-belgili tizimi»; «odam-tabiati»; «odam-badiiy obraz» turlarini o'rgatadi. 2. Kasblarni mehnatning maqsadi, vositalari, sharoitlari bo'yicha tasniflashni o'rgatadi. 3. Kasblarning «odam-odam»; «odam-texnika», «odam-belgili tizimi»;	O'quv natijalari: 1. Kasblarning «odam-odam»; «odam-texnika», «odam-belgili tizimi»; «odam - tabiati»; «odam-badiiy obraz» tiplarini o'rganadi 2. O'quvchilar individual tarzda kasblarni mehnatning maqsadi, vositalari, sharoitlari bo'yicha tasniflashi mumkin bo'ladi. 3. Kasblarni "odam-texnika", "odam-odam", "odam

«odam tabiat»; «odam-badiiy obraz" ta'rifini atroflicha tushuntiradi.	tabiat"; "odam-belgilar tizimi"; "odam-badiiy obraz" tiplarini va ularning bir-biridan farqini ajrata oladi.
O'qitishning usul, texnikasi:	Tushuntirish, suhbat, B B B strategiyasi, klaster.
O'qitish vositalari:	Mavzuga oid metodik qo'llanma, kompyuter va proyektor, tarkatma materiallar.
O'qitish shakli:	Frontal.
O'qitish shart-sharoitlari:	O'quv xonasi
Monitoring va baholash:	O'quvchilar faolligiga qarab, tahlil natijalari, reyting tizimi asosida.

Mehnat ta'limi darslarida kasb-hunarga yo'naltirishda bir qator ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq. (101)

Quyida darslarning samaraliligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ilg'or pedagogik texnologiyalardan "B/B/B texnologiyasi", «Nima uchun?» organayzeri, "Besh daqiqali esse qoidasi", "FSMU texnologiyasi" kabilarni misol qilib keltiramiz.

1. B/B/B texnologiyasi (Bilaman/Bilishni xohlayman/Bildim)

Ushbu texnologiyani qo'llashdan maqsad – mehnat ta'limi darslarida kasblar tasnifini, kasblarda mehnat turlarining (odam-tabiat, odam-texnika, odam-odam, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz) mavzusiga oid mavjud bilimlarni aniqlash, o'quvchilarning mavzuga oid qiziqishlarini aniqlash va shu asosda ularga ma'lumotlar berish va olgan bilimlarini rivojlantirishdan iborat.

BILAMAN	BILISHNI XOXLAYMAN	BILIB OLDIM

Bu metodni qo'llaganda o'quvchiga tarqatma materiallar asosida muammoli savollar beriladi va ularning fikrlari chegaralanmagan holda bayon etiladi.

Kasb tanlayotgan har bir kishi organizm uchun noqulay deb hi-soblanadigan omillarni bilib olmog'i kerak. Bu hol unga o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashga yordam beradi. Xo'sh, bular qanday omillar? Ba'zi hollarda bular — katta

jismoniy yuklamalar, optimal mikroiklimdan chekinilgan vaqtlar (haroratning past yoki yuqori bo'lishi) hisoblansa, boshqa hollarda bu omil ortiq darajadagi chang-to'zondan, shovqin va tebranishdan, uchinchi bir hollarda esa zaharli moddalarni ishlatishdan iborat bo'ladi va hokazo.

Mehnat sharoitining odam organizmiga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha kasblarni to'rt guruxga ajratish mumkin.


Birinchi guruxga mehnat sharoiti maishiy kasblarga yaqin bo'lgan kasblar kiradi. Misol tariqasida soat ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarni keltirish mumkin. Bu ishchi kasblari ichida yeng ko'p sonli guruxdir.

Ikkinchi gurux kasblari, masalan, oshpazlik kasbi ishlab chiqarish omilining mo'tadil yoki notekis ta'sir yetishi bilan bog'liq bo'lgan kasblardir. Bunday kasblar bo'yicha ishlagan vaqtda organizmga vaqtincha yuqori darajadagi havo harorati, namlik va boshqa shu singari omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu esa tomir urishining tezlashib ketishiga, ter ajralib chiqishining kuchayishiga sabab bo'ladi. Binobarin, bunday kasblarni faqat termoregulyatsiyasi yaxshi bo'lgan kishilargagina, shuningdek, yurak-tomir sistemasida, nafas organlarida kasalligi bo'lmagan kishilargagina tavsiya yetish mumkin.

Uchinchi guruhga har xil noqulay ishlab chiqarish omillarining yig'indisi xarakterli bo'lgan kasblar kiradi. To'qimachi kasbini bunga misol qilib keltirish mumkin. Yuragi, o'pkasi, eshitish organlari, tayanch harakat apparati kasal bo'lgan (yoki kasallik alomatlariga moyillik sezilgan), ko'zi yaxshi ko'rmaydigan kishilar uchun bu kasb to'g'ri kelmaydi.

To'rtinchi guruh og'ir va zararli mehnat sharoiti bilan bog'liq bo'lgan kasblardan iboratdir. Masalan, elektr payvandchi, po'lat quyuvchi va boshqalar ana shunday kasblar qatoriga kiradi. Ushbu kasblar bo'yicha to'liq bilimlarga ega bo'lishda «Nima uchun?» organayzeri yordam berishi mumkin.

2. «Nima uchun?» organayzeri



3. Besh daqiqali esse qoidasi.

Besh daqiqali esse-oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohoda qilish maqsadida oʻquv mashgʻuloti oxirida 5 daqiqa oraligʻida olib boriladi. Esse-taklif yetilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha soʻz hajmidagi inshodan iborat.

Esse-bu muallifning taʼkidlab oʻtadigan individual pozitsiyasidagi erkin ifoda yetish shakli; qandaydir predmet boʻyicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni oʻz ichiga oladi.

4. FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya oʻquvchilarni oʻz fikrini bayon qilishda, erkin fikrlash va oʻz fikrini boshqalarga ishontirishda, ochiq-oshkora bahslashishda, egallagan bilimlarini tahlil qilish va bahslashish madaniyatini oʻrgatadi.

FSMU texnologiyasining asosiy maʼnosi quyidagilardan iborat

(F) – Fikringizni bayon yeting.

(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab koʻrsating.

(M) – Koʻrsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya boʻyicha oʻqituvchi tomonidan kasb tanlashda yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan xatoliklarning baʼzilari keltirilib, ular boʻyicha oʻquvchilarning fikrlarini bildirish talab etiladi. Javoblar jadvalga toʻldiriladi.

Savol	Kasb tanlashda xatoliklar?
(F) Fikringizni bayon yeting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Yuqorida keltirilgan misollardan xulosa qilib aytish mumkinki, mehnat ta'limi fani doirasidagi kasb-hunarga yo'naltirish darslarida ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash, shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishi, hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashishi va kasbni erkin va mustaqil tanlashida yuqori samaradorlikka erishiladi.

Mehnat ta'limi darslarida kasb-hunarga yo'naltirishda "Keys-stadi" metodikasini qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ilovada keltirilgan.

2.1. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning samarali metodikalari

Kasb tanlash masalasi murakkab psixologik-pedagogik muammo bo'lib, qator rus va sobiq sovet psixologiyasi noamoyandalari tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan.

Maslan, S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to'g'risida quyidagi mulohazalarni bildirgan: «motivatsiya – bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir; motiv – bu shaxs xulq-atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi subyektiv tarzda aks ettirish demakdir».

Psixologiya fanida to'plangan nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, hamda bir qator psixologlarning fikricha, harakat shaxs motivlarining dinamik tomonlari asosini tashkil qiladi. Motiv hissiyot bilan ham bog'liq bo'lib, ular xulq-atvor mohiyatidan tashqarida bo'lmaydi, balki hissiy kechinmalar, motivlashgan omillar tizimi bilan uzviy aloqaga egadir.

A.N.Leontyevning fikricha, faoliyatning tuzilishi: maqsadga qaratilgan xatti-harakatlar va operatsiyalardan iboratdir. Odatda faoliyat o'zining predmeti va motiviga egadir. Ba'zi psixologlar motiv tuzilishiga oid masalaga yondashish jarayonida butun e'tiborni uning mazmuniy jabhasini alohida ko'rsatishiga, ma'naviy tomonlarining birlamchiligini belgilashga yo'naltiradi. Motivlar qator jihatlari bilan tasniflanadi.


Mamlakatimizda kasb tanlash, motivlar masalalari yuzasidan ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bulardan K. Davlatov, R.Jo'rayev, V.Soy, H.Rashidov, O.Quysinov, H.Yakubova, Mamedov K.Mirzayeva.S., A.Zakirov kabilarning ishlarini misol tarifasida ko'rsatish mumkin.

O'quvchilarning kasbiy qarorlarini shakllantirish – bu o'quvchi-yoshlarda ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarining amaliyotda malakali mutaxassislar ko'magida, kasbiy qiziqish va layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hokazo)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli va individual shug'ullanishni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Mavjud obyektiv va subyektiv omillardan unumli foydalana olish ham o'quvchilarda kasb-hunarni to'g'ri tanlashlarishga hissa qo'shadi.

Kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan texnologik yondoshuv – bu o'quvchi – yoshlar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy kasbiy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakaga aylantirish, ularda faol kasbiy yo'naltirishni tashkil etish tajribasini yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va moyilliklari asosida kasbiy qarorlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmui bo'lib xizmat qiladi. U quyidagi tarkibiy tuzilmaga asoslanadi. (4-rasm)

Keltirilgan tuzilmaning mohiyatidan anglanadiki, o'quvchilarning bo'lajak kasbiy shakllanishiga ijodiy yondashish birinchi navbatda muayyan kasbiy mavzu bo'yicha kompyuterda dasturlashtirilgan dars uyushtirilishini ko'zda tutadi. Kompyuterlashtirilgan darsning o'tkazilishidan ko'zlangan asosiy maqsad, o'quvchilarni ta'limning keyingi turi va bosqichiga ongli ravishda to'g'ri jalb etish, ularda kelajak mehnat faoliyati haqida tasavvur hosil qilishga yo'naltirilgan.

4-rasm. Kasb-hunarga yoʻnaltirishning tarkibiy tuzilmasi.



Ushbu maqsadga erishish imkoniyatini berish uchun ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarning qat'iy, aniq va ravshan belgilab olinishi, dars mazmuni (ssenariysi)ning puxta ishlab chiqilishi, shakllantirilgan mazmun-mohiyatini to'laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va vositalarning to'g'ri tanlanishini taqozo etadi. Ikkinchidan, dars jarayonining asosiy subyekti sifati kasb-hunarga yo'naluvchining shaxsi namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Uyushtirilayotgan darsning umumiy natijasiga mas'ullik kasbga yo'naluvchi va amaliyotchi psixologlar zimmasiga yuklanishi darkor.

Shunday sharoitdagina ular shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etish, o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zero, kasbiy pedagogik texnologiya (kasblarni kompyuterda programmashtirilgan versiya)larining afzalligi o'sib kelayotgan yosh avlodning mustaqil fikr egasi, erkin, shuningdek kelajagi haqida aniq tasavvurga ega shaxs bo'lib tarbiyalanishlarini ta'minlashga yo'naltirilganligidadir.

Kasb-hunarga yo'naltiruvchi (o'qituvchi)ning roli ushbu sharoitda o'quvchilar faoliyatini bo'lajak kasbiy shakllantirishi, ma'lum yo'nalishga solishi, ularning kasbiy yo'nalishi, qobiliyat va moyilliklarini to'g'ri boshqarish, zarur o'rinlarda maslahat berishdan iborat bo'lib, u eng avvalo, o'quvchilarning kelajakdagi kasblarni to'g'ri tanlashi, ularni ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'g'ri, to'liq qamrab olinishiga mas'uldir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining huquqiy asoslari Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida»gi 203-sonli qarori bilan mustahkamlangan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Kasbiy ma'rifat va axborot;
2. Kasbiy tashhis va maslahat;
3. Kasbiy tanlov;
4. Kasbiy moslashuv.

Birinchi bosqichda kasb hunarga yoʻnaltirish ishlarining negizi boʻlgan axborotlar bankini tashkil etish muhim oʻrin tutadi. Unga quyidagi muhim axborotlar majmuasini kiritish koʻzda tutiladi:

- mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalarida mavjud boʻlgan kasb-hunarlar roʻyxati; hududda mavjud kasb-hunarlarning tavsiflari; hududda joylashgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning joylashuvi xaritasi; akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi tayyorlov yoʻnalishlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar.

Kasb-hunarga yoʻnaltirishga oid tashhis va maslahat ishlarini tashkil qilish quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi:

1) Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish va psixologik-pedagogik tashhis xaritasi; 2) Oʻquvchilarni kasb-hunarga boʻlgan qiziqishlari, moyilligi va tugʻma layoqatini aniqlash boʻyicha psixodiagnostik metodikalar; 3) Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish boʻyicha umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tashkil etilgan hududiy komissiyalar; 4) Yakka tartibdagi kasb-hunarga yoʻnaltirish ishlari va maslahatlar.

Kasbiy maʼrifat. «Kasbiy maʼrifat» iborasining oʻrniga baʼzan «kasbiy axborot» iborasi ham ishlatiladi.

Kasbiy maʼrifat-maktab kasb-hunarga yoʻnaltiruvchisining asosiy vazifalaridan biridir. U bolalarni kasblar dunyosi bilan tanishtirishi, hududga mos boʻlgan va ayniqsa zaruriy mehnat turlarning mazmuni, ushbu kasblarni oʻrganish mumkin boʻlgan taʼlim muassasalari haqida, boʻlgʻusi mutaxassislarning ish joylari toʻgʻrisida soʻzlab berishi lozim. Buning uchun har bir kasb va mutaxassislik uchun maxsus hujjatlar-kasblarning qisqacha taʼriflari, professiogrammalar, psixogrammalar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, kasbiy maʼrifat (kasbiy axborot) kasb tanlashning axborot negizini shakllantirishga qaratilgan. Buning ustiga ishni savodli darajada tashkil qilinganda bolada kasb tanlashning faqat axborotli («bilaman») emas, balki motivatsiyali («hohlayman») negizi ham shakllanadi.

Kasbiy maslahatlar. Kasbiy maslahat-kasbiy oʻzini-oʻzi aniqlashda bolaga beriladigan yordam. Kasbiy maslahat berishda oʻqituvchi yoki maktab psixologi

o'quvchilar biolan o'tkaziladigan psixologik metodikalar yordamida aniqlangan layoqat va moyilliklar asosida o'quvchiga kasb-hunar yo'nalishini tanlashda kerakli maslahat beradi. Bunda albatta bolaning hohish-istaklarini ham hisobga olish zarur.

Kasbiy tanlash va kasbiy saralash. Bu tushunchalar turlichadir. Kasbiy tanlashda xar bir o'quvchi uchun uning psixofiziologik imkoniyatlariga mos tushadigan kasbiy faoliyatning yo'nalishi tanlanadi. Bunda birinchi rejada uning haqiqiy (real) imkoniyatlari turadi. Kasbiy saralashda esa buning aksi, birinchi o'rinda kasbning insonga nisbatan talablari turadi. Kosmonavtlar otryadiga saralab oladilar, televideniyaga diktorlarni saralab oladilar va h.k.z. Bu ikkala muolaja katta ko'lamdagi kasblar va mutaxassisliklarni tayyorlashda juda muhimdir.

Kasbiy tanlov-kasb-hunarlarni egallash uchun shaxsga qo'yiladigan malaka talablari, mone'lik qiladigan kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida bo'lajak kasbiy yo'nalishni tanlash jarayonidir.

Kasbiy moslashuv-kasb-hunarni egallash jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xos tibbiy-biologik va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda u bilan olib boriladigan ishlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Bu jarayonda asosiy mas'uliyat umumiy o'rta ta'lim maktabining kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisi va psixologi zimmasiga tushadi, ular esa o'z navbatida barcha ta'sir etuvchi omillar faoliyatini muvofiqlashtirib boradilar. Maktabda rahbariyat, sinf rahbari, psixolog, defektolog, shifokor (hamshira), mehnat ta'limi o'qituvchisi, fan o'qituvchilari, bolalar yetakchisi, to'garak rahbarlari va kutubxona mudiri doimiy hamkorlikda ish olib boradilar.

Olib borilayotgan ishlar natijalari psixolog bilan birga muntazam tashhis xaritasiga kiritilib, tahlil qilib boriladi. O'quvchiga ota-onasi, qarindoshlari, qo'ni-qo'shnilar, tengdoshlari, uning ideal qahramoni to'g'risidagi tasavvurlari, ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlari, hududdagi mehnat bozorining ehtiyojlari to'g'risidagi axborotlardan kelib chiqib kasbiy maslahatlar uyushtiriladi. O'quvchining kasbiy o'zligini anglashi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib beriladi.

O'quvchilarni kasb –hunarga yo'naltirish ishlari barcha mutasaddi tashkilotlarning ijtimoiy hamkorligi asosida tashkil etiladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazlarining bu boradagi faoliyatlari tegishli meyoriy va uslubiy hujjatlarda belgilab berilgan.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarida shaxsning kasbiy o'zligini anglash jarayoni juda muhim o'rin tutadi. Bunda o'quvchi kasblar olami va kasb tanlash muammolari o'rtasida, makro hamda mikro muhit ta'sirida ongli ravishda ma'lum bir qarorga kelishi lozim bo'ladi.

O'quvchining turli kasb-hunarlariga moyilligini rivojlantirish jarayoni o'z ichiga atrofdagi mikro muhitning ta'siri, uning fikrlashi, irodasi, xotirasi, his-hayajon va diqqat e'tiborlarining ta'siri ostida kasblar olamini bilishi, o'zining xohishi, imkoniyatlari va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib ma'lum bir kasb-hunarni tanlash bo'yicha bir qarorga kelishini oladi. Bu jarayon o'quvchining kasbiy o'zligini anglash jarayoni deb ham ataladi.

Kasblarning umumiy tasniflanishi. Tasniflash, predmet va hodisalarni ma'lum muhim belgilari bo'yicha turlarga ajratish, ularni ongli ravishda tartiblashdir.

Kasblarni tasniflashning bir qancha turlari mavjud. Masalan: kasblarni birinchi harfiga qarab tasniflash. Kasb tanlash maqsadlarida tasniflashning bu turi bilan ishlash noqulay, chunki ba'zi kasblarning nomi tanlovchiga tanish emas.

Mehnat tasnifi bo'yicha barcha kasblarni asosan ikki guruhga ajratish mumkin: jismoniy va aqliy. Hozirgi vaqtda bu ikki tur o'rtasidagi tafovut mehnat jarayonini avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, kompg'yuter texnikasining keng qo'llanishi va boshqalar tufayli yo'qolib bormoqda. Shu sababli ba'zi kasblarni bu belgilar bo'yicha tasniflash tegishli natijani bermaydi.

Kasblar olamida aniq bir to'xtamga kelishda kasb-hunarlarining quyidagi asosiy belgilar bo'yicha bo'linishi yordam beradi (5-rasm):



5-rasm. Kasb-hunarlarning asosiy belgilar bo'yicha bo'linishi.

Boshqa tomondan, ular mehnat predmeti, maqsadi, quroli va sharoiti bo'yicha ham guruhlanishi mumkin.

Kasb-hunarlar mehnat maqsadiga qarab 3 sinfga bo'linadi.

I. Gnostik–(gnosis-bilim, bilish). Bu sinfga asosan bilish, farqlash, aniqlash, baholash, tahlil qilish va tekshirish kabilar bilan bog'liq hislatlarga mos tushuvchi texnikaviy nazoratchi, kimyoviy tahlil laboranti, tibbiyot laboranti kabi kasb-hunarlar to'g'ri keladi.

II. Shakl o'zgartiruvchi–predmetlarning shaklini o'zgartirish, ishlov berish, tartiblash, tashkil qilish, ta'sir ko'rsatish, ko'chirib o'tish va xizmat ko'rsatish kabi faoliyat doiralariga mos tushuvchi tokar, fotolaborant, plakatchi rassom, ganch bo'yicha rassom, haykaltarosh tipidagi kasb-hunarlar kiradi.

III. Ijodiy–ixtiro qilish, o‘ylab topish, yangi natija, namuna, yechim topish bilan bog‘liq bo‘lgan kasb-hunarlar(masalan: yog‘och bo‘yicha o‘ymakor rassom, kino rassomi, kashtachi, muzeyshunos, badiiy so‘z ustasi) mos keladi.

Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchisi yuqorida keltirilgan tasniflash va sinflash usullari asosida barcha mavjud kasb-hunarlarni o‘ziga mos keluvchi guruhlariga to‘g‘ri taqsimlay bilishi kerak.

Mehnat sharoiti bo‘yicha kasb-hunarlar quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- Ma‘naviy javobgarligi yuqori bo‘lgan kasbiy faoliyat sohalari;
- O‘ziga xos sharoitlarni talab qiladigan kasblar;
- Maishiy meyorlarga mos keladigan kasblar;
- Ochiq havodagi ish sharoitlaridagi faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan kasb-hunarlar.

Shaxsning (o‘quvchining) imkoniyatlari uning layoqati va sog‘ligi orqali aniqlanadi. Layoqat u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyat bilan bajarish, uni oson o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan insonning shaxsiy hususiyatlari va ijodiy imkoniyatlarini belgilaydi. Layoqatni aniqlash jarayonida umumiy layoqat va maxsus layoqatlar aniqlanadi va ularning natijasi o‘laroq faliyatda namoyon bo‘ladigan layoqatlar aniqlanadi.

Jamiyat ehtiyojlari. Jamiyatga barcha kasb-hunarlar kerak, biroq qaysidir kasblarga talab ko‘proq qaysisigadir esa ehtiyoj kamroq bo‘ladi. U yoki bu kasb-hunarni tanlash jarayonida uning jamiyatdagi mavqe‘ini bilish muhimdir. Buning uchun shu kasb bo‘yicha mehnat faoliyatining mazmuni, istiqboli, kasbga o‘zining mosligi, shu yo‘nalishda o‘qish imkoniyatlari va kasbning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish darkor.

O‘quvchilarni kasb-hunar kollejlarga yo‘naltirishda ularni o‘qish davomida psixologik-pedagogik tashxis natijalari asosida aniqlangan qiziqishlari, moyilliklari va layoqatlariga mos holda beriladigan "Tavsiyanoma" asos qilib olinadi.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy tamoyillari.

- Jamiyat ehtiyojlari va zamonaviy ilmiy talablarning mos kelishi;
- Shaxs va jamiyat ehtiyojlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;

- Yoshlar o'rtasidagi kasblarni tanlashdagi ixtiyoriylik bilan amaldagi imkoniyatlari orasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;

- Kasb tanlashning ongliligi;
- Kasb tanlashda yoshlarning mustaqilligi;
- Kasb tanlashning ixtiyoriyligi;
- Kasbni o'z vaqtida tanlash.

Kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha vatanimiz va chet ellardagi tajribalar tahlili rivojlanayotgan davlatlarga ham, juda rivojlangan davlatlarga ham taalluqli bo'lgan ayrim umumiy «og'riq nuqtalarni» aniqlash imkonini berdi. Ulardan ayrimlarini belgilab olamiz.

Birinchi olingan kasbiy maslahatlardan (bu esa, odatda o'rta va yuqori sinf o'quvchilari) kasb-hunar bo'yicha sezilarli natijalarga erishgunga qadar ko'p yillar o'tadi. Ayrim inson tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar odilona o'sha insonning shaxsiy fazilatlari, kasb-hunar ta'limi muassasasining, mehnat jamoasining ta'siri natijasi deb hisoblanadi, lekin kasbga yo'naltirish xizmatining emas. Bu to'g'rida uzoq yillar o'tganligi sababli unutib qo'yishadi.

Kasbga yo'naltirish faoliyatining sezilarli va o'sha zahoti olinadigan natijalarining yo'qligi boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi. Kasbga yo'naltirish o'zining faoliyat ko'rsatish xuquqini isbotlash uchun kunma-kun harakat qiladigan xizmatga aylanib qoldi.

Kasbga yo'naltirish xizmatlari masalan, masalan kam nufuzli o'quv yurtlarining to'ldirilish foizlari yoki yoshlarni maoshi kam to'lanadigan, ish sharoiti og'ir bo'lgan korxonalarga ishga joylashtirish to'g'risida hisobot beradilar.

Har qanday kishi o'z hayotini yaxshilashi uchun, birinchidan, buni hohlashi, ikkinchidan, bunga o'zi tayyor bo'lishi va yana, bunga erishish uchun harakat qilishi kerak.

O'spirinlik yoshi-shaxsiy o'zligini anglash va dunyoqarashning shakllanish davridir. O'spirinni "Men kimman?", "Qanday odamman?", "Men nimaga intilyapman?" degan savollar o'ylantirishi tabiiy hol.

Shaxsiy o'zligini anglash – bu o'quvchining o'z ichki dunyosini kashf qilishi, u haqda yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish, o'z-o'ziga emotsional munosabati, aqliy, axloqiy va irodaviy sifatlarini (o'z-o'zini) baholashidir.

O'spirinlik yoshida o'zlikni anglashning juda muhim komponenti - o'z hatti-harakati uchun javobgarlik va uning natijasi (yaxshimi, yomonmi!) ga faqat o'zi sababchi ekanligini his qilish xususiyatining shakllanishidir. Bu yoshda «Kim bo'lsam ekan?» savoli o'spirinning o'y-fikrini qamrab oladi.

O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni tashkiliy jihatdan ko'proq pedagogik xarakterga ega bo'lcada, u mazmunan psixologik mohiyatga ega. Chunki, barcha pedagogik tadbirlar (tashqi ta'sir) o'quvchining kasbiy o'zligini anglash va ongli kasb tanlashi uchun xizmat qiladi, uning kasbiy o'zligini anglash jarayoni (ichki ta'sir) esa psixologik qonuniyatlar asosida kechadi. Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida tashqi va ichki ta'sirlarning mushtaraklashuvi oqibatida o'quvchida ichki pozitsiya shakllanadi. Demak, bu jarayon eng avvalo kasbiy o'zlikni anglashga yo'naltirilgan.

Kasbiy psixologik-pedagogik tashxis faqat bitta-ikkita metodikani o'tkazish bilan emas, balki kasblar to'g'risida ma'lumot berish va kasbiy maslahat ishlari bilan uyg'unlashib ketgan, korreksion-rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan jarayon sifatida amalga oshirilishi kerak.

Psixologik-pedagogik tashxis o'tkazish jarayoni:

- tashxis obyektini va muammoni belgilash;
- tashxis metodikasini tanlash yoki ishlab chiqish;
- tashxis o'tkazish;
- natijalarini qayta ishlash va interpretatsiya qilish;
- natijalar asosida kasbga yo'naltirish tadbirlari yoki tavsiyalarni tayyorlash;
- tadbirlarni amalga oshirish;
- qayta tashxis o'tkazish, sifat o'zgarishini aniqlash;
- korreksion-rivojlantirish ishlarini belgilash kabi bosqichlardan iborat

Uzluksiz kasbiy psixologik-pedagogik tashxis, o'quvchilarning tug'ma layoqat, qiziqish va qobiliyatlarini o'rganish davomida, ularning kasbiy motiv,

shaxsiy rejalarini ham korreksiyalab borish imkonini beradi. Bundan tashqari, psixologik-pedagogik tashxis kasb-hunarga yo'naltirish mazmunini belgilash, natijani tahlil etish va navbatdagi bosqichda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishni asosli rejalashtirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilishda quyidagi metodikalarni qo'llash tavsiya etiladi:

- 1.Qiziqishlar anketasi
2. Kasb tanlash motivini aniqlash
- 3.Kasb tiplarini aniqlash
- 4.Kasbiy moyillik so'rovnomasi.

Bu metodikalar orqali o'quvchilarda qanday kasblarga oid qiziqishlar mavjudligi, o'quvchida u yoki bu kasbga moyillik yorqin ifodalangan bo'lsa va u muayyan bir kasbni tanlagan bo'lsa, unda aynan shu kasbni tanlash motivi qanday ekanligini bilish, qaysi tipdagi kasbni ko'proq xoxlashi va unga moyilligini aniqlash mumkin. Metodikalar umumta'lim maktablari o'quvchilarining yoshi va kasb-hunarga yo'naltirish maqsadlariga moslashtirilgan bo'lib, ko'p vaqt talab qilmaydi, savollar qaytarilmaydi, o'quvchilar uchun qulay xolatga keltirilgan.

1. Qiziqishlar anketasi.

Ushbu so'rovnoma sinaluvchilarning u yoki bu faoliyat turiga qiziqish darajasini aniqlashga mo'ljallangan. Uning yordamida olingan ma'lumotlarga asoslangan holda yuqori sinf o'quvchilariga (8-9 sinflar) kasb tanlash, kasbga yo'llash masalalariga oid maslahatlar berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu so'rovnoma bilan ishlashda psixolog oldindan barcha sinaluvchilarga yetadigan miqdorda javob varaqasi tayyorlab olishi kerak bo'ladi. So'ng tadqiqotni sinaluvchilarga beriladigan quyidagi ko'rsatma bo'yicha amalga oshiradi. So'rovnoma matnini har bir sinaluvchiga alohida qilib berish ham mumkin, lekin ularning javob berish vaqti chegaralanganligi haqida ogohlantirib qo'yish kerak (15-20 daqiqagacha). Tadqiqot davomida sinaluvchiga qulay sharoitni yaratish,

unga halaqit beruvchi omillarni bartaraf etish, psixodiagnostik tadqiqotlar olib borish talablariga qat'iy amal qilish lozim.

2.“Kasb tanlash motivini aniqlash”

Agar o‘quvchida u yoki bu kasbga moyillik yorqin ifodalangan bo‘lsa va u muayyan bir kasbni tanlagan bo‘lsa, unda aynan shu kasbni tanlash motivi qanday ekanligini bilish zarurati ham yuzaga kelib qolishi mumkin. Bu o‘rinda psixolog quyidagi «Kasb tanlash motivini aniqlash» deb nomlangan metodikadan foydalanishi mumkin. Kasbiy motivatsiya -kasb tanlashga sabab bo‘ladigan aniq rag‘batlantiruvchi harakatdir.

3.“Kasb tiplarini aniqlash”

Kasb tiplarini aniqlash 5 - rasmda keltirilgan kasb tiplari: "inson-tabiat", "inson-texnika", "inson-belgilar tizimi", "inson-badiiy obraz"; "inson-inson" asosida amalga oshiriladi. Natijalar maxsus jadval ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. Jadvalda shaxsning o‘ziga va o‘z imkoniyatlariga baho berishi uchun tegishli jumlar, ya’ni tasdiqlar keltirilgan.

Agar o‘quvchi ushbu tasdiqlarga “ha”deb javob bersa, u holda jadvaldagi berilgan raqamlar yoniga “+”, “yo‘q” bo‘lsa “-” belgilarini qo‘yishi, agar javobida ikkilansa raqamni o‘chirib qo‘yishi so‘raladi.

O‘zini baholash bo‘yicha tasdiqlar	1. Tabiat	2. Texnika	3. Belgi	4. San‘at	5. Inson
1. Odamlar bilan tez muloqotga kirisha olaman					1
2. Katta qiziqish va uzoq vaqt biror narsani o‘z qo‘lim bilan yasashga qiziqaman.		1			
3. Muzey, teatr, ko‘rgazmalarga borishni yoqtiraman.				1	
4. Doimo hayvonlar va o‘simliklarni parvarish qilishga qiziqaman.	1				
5. Uzoq vaqt biror narsani			1		

hisoblashga oid ishlarni bajarishga yoki chizmalar chizishga qiziqaman.					
6. Tengdoshlarim yoki kichik yoshdagilar bilan muloqot qilishdan huzurlanaman.					1
7. O'simliklar va hayvonlarni parvarish qilishdan rohatlanaman.	1				
8. Yozma ishlarni xatosiz yozaman			1		
9. Meni yasagan narsalarim do'stlarim va kattalarda qiziqish uyg'otadi.		2			
10. Tanishlarim menda badiiy qobiliyat rivojlangan deb hisoblashadi.				2	
11.O'simliklar va hayvonot olami haqida turli adabiyotlarni bajonidil o'qiyman.	1				
12. Sahna asarlari va konsertlarda ishtirok etishni yoqtiraman.				1	
13. Turli asbob va mexanizmlar to'g'risida o'qishni yoqtiraman.		1			
14. Uzoq vaqt turli mantiqiy boshqotirmalar, masalalar va krossvordlar yechishni yoqtiraman.			2		
15. Odamlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf qilishga yordam bera olaman.					2
16. Texnika sohasida ishlashga qobiliyatim yetarli deb hisoblayman.		2			
17.Badiiy ijod sohasidagi faoliyatim tanishlarimga manzur bo'lmoqda.				2	

18. Men o'simliklar va hayvonot olamiga oid faoliyat bilan shug'ullanishga qobiliyatim yetarli darajada deb hisoblayman.	2				
19. Men o'zimning fikrlarimni yozma ravishda aniq bayon qila olaman.			2		
20. Men hech qachon hech kim bilan janjallashmayman.					1
21. Mening texnik ijodiyot sohasidagi yutuqlarimni barcha tanishlarim qo'llab-quvvatlayaptilar.		1			
22. Chet tillarni oson o'zlashtiryapman.			1		
23. Men har doim, hatto notanish odamlarga ham yordam berishga harakat qilaman.					2
24. Uzoq vaqt musiqa, rasm chizish va kitob o'qish bilan shug'ullana olaman.				1	
25. O'simliklar va hayvonlarning rivojlanishi bilan bog'liq tadqiqotlar o'tkazishga qiziqaman.	2				
26. Mexanizm va asboblarning tuzilishi haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqaman.		1			
27. Odatda ko'pgina tanishlarim biror-bir masalada mening fikrimga qo'shiladilar.					1
28. O'simliklarning va hayvonlarning rivojlanishini kuzatishga qiziqaman.	1				

29. Ilmiy-ommabop, publistik (ijtimoiy-siyosiy masalarga oid) va tanqidiy asarlarni o'qishga qiziqaman.			1		
30. Mahorat sirlarini, rassomlik, musiqa sohasini egallashga intilishim kuchli.				1	
Natijalar					

Natijalarni tahlil qilishda jadvalning xar bir ustuni bo'yicha yig'indi hisoblanadi (o'chirilgan raqamlar hisoblanmaydi) va natijalar qatoriga yoziladi. So'rov natijasida bir yoki bir nechta ustunlar bo'yicha eng ko'p ball yoki ballar to'plansa demak, shu tipga xos bo'lgan kasblarni o'quvchiga tavsiya etish mumkin. Kam ball to'plangan ustunlardagi kasblar esa o'quvchilarga tavsiya etilmaydi. Har bir ustun bo'yicha maksimal ball - 8 ballni tashkil etadi.

4. "Kasbiy moyillik so'rovnomasi".

O'quvchilarning kasblardan biriga moyilligini aniqlashning yana bir metodi bu kasbiy moyillik so'rovnomasidir. So'rovnoma javoblari maxsus jadvalda to'planadi va tahlil qilinadi. Bu metodika boshqa metodikalar bilan birgalikda o'tkaziladi va kasb-hunarlarini tanlashda o'quvchilarga yordam berishi mumkin.

So'rovnoma natijalari tahlili quyidagicha rasmiylashtiriladi:

10-12 ball – yorqin ifodalangan kasbiy moyillik;

7-9 ball - aniq turdagi faoliyatga kasbiy moyillik;

4-6 ball- sust ifodalangan kasbiy moyillik;

0-3 ball- kasbiy moyillik ifodalanmagan.

Yuqorida keltirilgan metodlar umumta'lim maktablari o'quvchilari orasida asosan yuqori sinflardagi o'qish davrida olib boriladi va uning yakunlari xar bir o'quvchi o'zining imkoniyatlari, moyilligi, xoxish-istaklari va qiziqishlari asosda kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo'nalishlaridan birini tanlab olishida asos bo'ladi.

II bob bo'yicha xulosalar

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanini o'qitishning maqsadidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga kasb-hunarlarning asoslarini (texnologiyasini) o'rgatish, kasb-hunarlarni tanlash bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratish, ularning kasbgacha tayyorgarligini rivojlantirish, kasb-hunar asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy talablar darajasida bo'lishini ta'minlash muhim rol o'ynaydi.

2. Mehnat ta'limi darslaridagi kasb-hunarga yo'naltirish yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar: bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati, turli xil kasblarning insonga qo'yadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajarasi, O'zbekiston xalq xo'jaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi; O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari va ta'lim muassasalari; kasblar, mehnat shart-sharoitlari, vositalari, predmeti, maqsadi bo'yicha shajaralanishi, o'quvchilarning o'z qiziqish va moyilliklari, xarakterining o'ziga xos xususiyatlari, psixikasi, o'z qobiliyat va ehtiyojlari, kasblar to'g'risida ma'lumot olish, mehnat bozori talablari asosida ehtiyojning o'zgarib borishini, salomatligining tanlagan kasbiga mos kelishi, o'qishni davom ettirish imkoniyatlari kabilarni o'rganadilar.

3. Mehnat ta'limi fani doirasidagi kasb-hunarga yo'naltirish darslarida axborot, pedagogik va ta'lim texnologiyalarini to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarga mavzu bo'yicha batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishi, ularni taxlil eta olishi va amaliy tadbiq etishlariga erishiladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni kasblarni aks ettiruvchi rasmlar, videofilmlar, slaydlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

4. Darslarda pedagogik texnologiyalar, rolli o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchilarda kasblarning turkumlari, tiplari va kasblarni egallash uchun reja ishlab chiqishda mustaqil fikr yuritishlariga erishiladi.

5. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratligi aniqlandi:

- Kasbiy ma’rifat va axborot;
- Kasbiy tashhis va maslahat;
- Kasbiy tanlov;
- Kasbiy moslashuv.

6. Kasb-hunarga yo‘naltirishga oid tashhis va maslahat ishlarini tashkil qilish quyidagi metodlar orqali amalga oshirilishi tavsiya qilinadi:

- umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari orasida kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashhis xaritasini yuritish;
- o‘quvchilarni kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlari, moyilligi va tug‘ma layoqatini aniqlash bo‘yicha psixodiagnostik metodikalardan foydalanish;
- o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etilgan hududiy komissiyalarning ishini faollashtirish;
- o‘quvchilar bilan yakka tartibdagi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari va maslahatlar olib borish.

Yuqorida keltirilgan metodlar umumta’lim maktablari o‘quvchilari orasida asosan yuqori sinflarda olib boriladi va uning yakunlari har bir o‘quvchi o‘zining imkoniyatlari, moyilligi, xoxish-imstaklari va qiziqishlari asosda kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo‘nalishlaridan birini tanlab olishida asos bo‘ladi.

III-BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI

3.1. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o'tkazish metodikasi

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi bilan hamkorlikda umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanidan dars mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi.

Sinov davomida pedagogik tajriba-sinov jarayonini oldindan loyihalashtirish hamda faoliyatni rejalashtirish dasturini ishlab chiqishda o'quvchilarning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlari hisobga olingan metodikalardan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda quyidagilarga e'tibor berildi:

- tajriba-sinovdan o'tkazilayotgan mehnat ta'limi davrlarida berilgan materiallar o'quvchilarni qiziqтира olish imkoniyatiga egaligiga e'tiborni qaratish, buning uchun har bir dars mavzusi bo'yicha berilgan axborotlar, topshiriqlar o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligini ta'minlashi;

- darsdagi mashqlar va topshiriqlar o'quvchilarning o'zlashtirgan o'quv vositalarini takrorlash imkoniyatiga egaligini hisobga olish;

- darslarda o'quvchilarning tinglab tushunish, so'zlash, ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan aniq tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan o'quv materiallari mavjudligiga ahamiyat berish;

- pedagogik tajriba-sinov o'tkazish uchun imkoniyatlari har tomonlama mos keladigan sinf guruhlari bo'lishi shartligi.

Pedagogik amaliyot davridagi tajriba-sinov ishlarida kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. Kasbiy axborotlar va kasbiy ma'lumotlar berish;

2. Kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo'nalishlari va kasblari bo'yicha ma'lumotlar berish;

3. psixologik tashxis metodikalarini qo'llagan holda o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini o'rganish;

4. Berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini anketa so'rovlari yordamida tekshirib ko'rish;

5. Natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilishda quyidagi metodikalarni qo'llash tavsiya etiladi:

Qiziqishlar anketasi;

Kasb tanlash motivini aniqlash;

Kasb tiplarini aniqlash;

Kasbiy moyillik so'rovnomasi.

Maxsus ekspress so'rovnomaning o'tkazishning bosh g'oyasi bugungi kunda o'quvchi yoshlarimizning qiziqish, qobiliyat va xohishlarini aniqlash, o'z vaqtida mustaqil kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashishdan iborat.

Mazkur ekspress-so'rovnoma tajriba-sinov o'tkazilishi mo'ljallangan 73-sonli umumta'lim maktabida o'tkazilib, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va xohish-istaklari o'rganildi.

So'rovnomaning o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va xohish-istaklarini o'rganish, kasbiy ko'nikmani shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi talablariga mos keladigan kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish va amaliyotda unumli foydalanishdan iborat.

So'rovnoma o'tkazishning asosiy vazifalari etib, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va xohish - istaklarini aniqlash metodikasi natijalarini analitik tahlil etish va ma'lumotlar bazasini yaratish; tahlil natijalariga ko'ra ta'lim muassasalari uchun kasb - hunarga yo'naltirish jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan uslubiy qo'llanma va tavsiyalar yaratish hamda chora-tadbirlar ishlab chiqish; o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va intilishlarini o'rganish orqali kasb-hunarga yo'naltirishning samarali metodlarini tavsiya etishdan iborat qilib belgilandi.

Mazkur ekspress-so'rovnomaning stimulyer material 45 ta ta'kid – hukmdan iborat bo'lib, 9 ta shkala asosida (jismoniy, tashkilotchilik, matematik,

konstruktorlik-texnika, tasviriy (artistik), kommunikativ, musiqiy, badiiy-tasviriy, filologik(til-adabiyot, jurnalistika) sohalar bo'yicha o'quvchilarning qiziqishlari qobiliyatlari va xohish - istaklarini aniqlashga mo'ljallangan.

Tadqiqot jarayonida respondent sifatida belgilangan o'quvchi va o'qituvchilar ishtirokida olib borilgan tadbirlar quyidagi metodlar yordamida tashkil etildi: tushuntirish, hikoya qilish, suhbat, amaliy mashg'ulotlar, trening, ijtimoiy, anketa va test so'rovlari, intervyu, noan'anaviy metodlar – “Aqliy hujum», “Tabaqalashtirilgan tashhis so'rovnomasi (TTS)”, “Ahamiyatli yo'naltirish” va hokazolar.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi vositalardan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi: o'quv va metodik adabiyotlar, mashg'ulotlarning ishlanmalari, sxemalar, tasvirlar, loyihalar, diagrammalar, kasb va hunarlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli xususida mutafakkirlar tomonidan bildirilgan fikrlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, xorijiy mamlakatlar tajribalari, muayyan yo'nalishlarda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida foydalanuvchi magnat qurollari, qurilmalar, texnik vositalar, maxsus kiyim-boshlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, turli sohalarda faoliyat yuritayotgan mehnat ilg'orlari va faxriylarining hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanish va boshqalar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyoti hamda respondentlarning faoliyatlarini bevosita va bilvosita kuzatish, ular bilan faol muloqotda bo'lish natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishga nisbatan texnologik yondashuv bu borada yutuqlarni qo'lga kiritish kafolati ekanligiga guvoh bo'ldik. Shu bois, o'quvchilar o'rtasida kasb tanlash asoslari borasidagi bilimlarni targ'ib etish va ularda kasbiy faoliyat ko'nikma hamda malakalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy tadbirlarning ma'lum loyihalarga muvofiq olib borishga harakat qildik har bir tadbir bo'yicha maxsus loyihalar ishlab chiqilgani holda ular umumiy tarzda quyidagi tuzilmaga ega bo'ldilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish borasidagi tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda tashkil etildi: asoslovchi, shakllantiruvchi va ta'kidlovchi tajribalar. Ularning har biri aniq vazifalarning hal etilishiga yo'naltirildi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Tajriba-sinov ishlarining tashkiliy bosqichi. Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichi bo'lgan ushbu bosqichda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning umumiy mazmunini aks ettiruvchi harakat dasturi va ishchi reja ishlab chikildi, amaliy faoliyat olib boriluvchi umumiy davr va bosqichlar belgilandi, ularda bajarilishi zarur bo'lgan aniq vazifalar, ularning bajarilish muddati belgilandi. Tajriba-sinov ishlari uchun obyektlar tanlandi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning shaxsi va faoliyati mohiyati, pedagogik tajribalari borasidagi ma'lumotlarni to'plash, ular bilan muloqotlar tashkil etish asosida tajriba ishlarini olib boruvchi mas'ul o'qituvchilar belgilandi, ularga hamkorlikda yo'lga qo'yiluvchi faoliyat mohiyati, mazkur jarayonning umumiy mohiyati, qo'lga kiritilishi kutilayotgan natijalar xususida ma'lumotlar berildi. Respondent-o'qituvchilar hamda o'quvchilarning soni aniqlandi, amaliy faoliyat jalb etilgan o'quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga biriktirildilar. Umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda respondent-o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatlari bevosita va bilvosita o'rganildi, ular o'rtasida dastlabki anketa va ijtimoiy so'rovlar tashkil etildi, natijalar umumlashtirildi, ular asosida xulosalar chiqarildi. Xulosalarga tayangan holda faoliyat dasturi va ishchi rejada belgilangan vazifalarning mohiyati yanada aniqlashtirildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishga xizmat qiluvchi ishlanmalar tayyorlandi.

2. Tajriba-sinov ishlarining bevosita tashkil etish bosqichi. Ushbu umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga imkon beruvchi shart-sharoitlar yaratildi. Chunonchi, mavjud kasb yoki hunarlar mohiyatini yorituvchi

ma'lumotlar bazasi, ularni o'quvchilarga yetkazib beruvchi hamda o'quvchilarga ma'lum kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yish borasidagi dastlabki ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi monitoring tashkil etildi.

Monitoring o'zida quyidagilarni aks ettiradi: mavjud kasb-hunarlar xususidagi tushunchalar bera oluvchi adabiyotlar, ilg'or ish tajribalari (shu jumladan, xorijiy mamlakatlarning tajribalari), muayyan kasb yoki hunar asoslarini o'rganishning minimum darajasi, tanlangan kasbiy faoliyatni olib borish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va irodaviy sifatlarga ega bo'lish borasidagi talablar, kasb (yoki hunar) asoslari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan o'quv yurtlari (akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o'quv yurtlari), amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda -muhim baza bo'lib xizmat qiluvchi ishlab chiqarish subyektlari (korxona, tashkilot, muassasa hamda fermer xo'jaliklari) va hokazolar to'g'risidagi ma'lumotlar.

3. Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichi. So'nggi bosqichda amaliy faoliyat ko'rsatkichlarini umumlashtirish, tahlil etish, asosiy natijalarni esa matematik-statistik metod yordamida qayta tahlil etish hamda umumiy xulosalarni chiqarish kabi harakatlar olib borildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borishga mas'ul bo'lgan o'qituvchilar ishtirokida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish borasidagi maxsus metodikaning samaradorlik darajasi xolis baholandi.

Ma'lumki, tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatini ta'minlashda ko'zlangan maqsadga erishish va vazifalarni ijobiy hal etishga imkon beruvchi samarali shakl, metod va vositalarning tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois amaliy faoliyatni tashkil etish jarayonida qo'llaniluvchi shakl, metod va vositalarni belgilab olish hamda bevosita tajriba orqali ularning samaradorligini aniqlashga ham e'tibor qaratildi.

12 yillik ta'limga o'tish munosabati bilan kelgusi yillarda 9-sinf bitiruvchilarini ongli ravishda kasb tanlashiga erishishimiz uchun umumta'lim maktablari kasb-hunarga yo'naltiruvchilari, amaliyotchi psixologlari, ota-onalar, sinf rahbaralarining kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga yanada mas'uliyatliroq

yondoshishlari talab etiladi. Shu kabi muhim muammolarni yechimini topish maqsadida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samaradorligini oshirish, o‘quvchi yoshlarning mustaqil kasbiy qaror qabul qilishiga ko‘maklashish maqsadida umumta’lim maktablarida “Kasblar olamiga sayohat”, “Kasbim faxrim”, “Kasblar festivali” kabi tadbirlar, shu soha vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazish o‘quvchilarning ongli kasb tanlashi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

3.2. Olingan natijalar tahlili

Tajriba ishining muhim bosqichi sanalgan uchinchi bosqichda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish yuzasidan ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida amaliy faoliyatni tashkil etish yakunlari hamda ushbu metodikaning samaradorligi o‘rganildi.

Ana shu maqsadda respondent - o‘quvchilar, o‘qituvchilar hamda ota-onalar o‘rtasida ikkinchi tur so‘rovlarini tashkil etdik.

Tajriba-sinov ishlarining yakunida tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan mezonlar asosida o‘quvchilar tomonidan kasb va hunarlar yo‘nalishlarining nazariy va amaliy asoslarining puxta o‘zlashtirilishi mohiyatiga ko‘ra yuqori, o‘rta va past darajada namoyon bo‘lishiga tayangan holda guruhlariga ajratib olindi. Har bir guruhning mohiyati quyidagi mazmunni ifodalashi belgilandi:

Yuqori daraja - kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish hayotiy zaruriyat ekanligini his etadilar, jamiyatda mavjud bo‘lgan kasb-hunarlarining turlari, ularning mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, mutaxassisliklar bo‘yicha ma’lumot olish jarayoni (mutaxassislik ma’lumotini beruvchi ta’lim muassasalari, ularda ta’lim olish shartlari, ma’lumot olish bosqichlari), ishga joylashish tartibi, kasbiy tayyorgarlikka nisbatan qo‘yiluvchi talablar xususidagi nazariy ma’lumotlarni yetarli darajada o‘zlashtirganlar, ma’lum kasb yoki hunar yo‘nalishi bo‘yicha dastlabki ko‘nikma va malakalarga egalar, bo‘ljak kasbiy faoliyat yuzasidan aniq, maqsadni o‘z oldilariga qo‘ya olganlar hamda unga erishish yo‘lida amaliy harakatlarni olib boradilar.

O'rta daraja - kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish hayotiy zaruriyat ekanligini xoss etadilar, jamiyatda mavjud bo'lgan kasb-hunarlarning turlari, ularning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, mutaxassisliklar bo'yicha ma'lumot olish jarayoni (mutaxassislik ma'lumotini beruvchi ta'lim muassasalari, ularda ta'lim olish shartlari, ma'lumot olish bosqichlari), ishga joylashish tartibi, kasbiy tayyorgarlikka nisbatan qo'yiluvchi talablar xususidagi nazariy ma'lumotlarni yetarli darajada o'zlashtirganlar, ma'lum kasb yoki hunar yo'nalishi bo'yicha dastlabki ko'nikma va malakalarga egalar, biroq, bo'lajak kasbiy faoliyat yuzasidan aniq qarorga kela olmaganlar va kasbiy maslahat hamda psixo-pedagogik yordam ko'rsatilishiga nisbatan ehtiyoj sezadilar.

Past daraja - kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish hayotiy zaruriyat ekanligini his etadilar, jamiyatda mavjud bo'lgan kasb-hunarlarning turlari, ularning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, mutaxassisliklar bo'yicha ma'lumot olish jarayoni (mutaxassislik ma'lumotini beruvchi ta'lim muassasalari, ularda ta'lim olish shartlari, ma'lumot olish bosqichlari), ishga joylashish tartibi, kasbiy tayyorgarlikka nisbatan qo'yiluvchi talablar xususidagi nazariy ma'lumotlarni ma'lum darajada o'zlashtirganlar, u yoki bu kasb (hunar) bo'yicha kasbiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalariga ega emaslar, bo'lajak kasbiy faoliyatni tanlashga nisbatan mas'uliyatni his eta olmaydilar, shu bois jiddiy ravishda kasbiy maslahat va psixopedagogik yordamga muhtojdirlar.

Respondent - o'quvchilarning kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalari darajasini aniqlashda dissertatsiya ishining 2.3.-bandida qayd etilgan mezonlarga tayanildi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida ular tomonidan qayd etilgan ko'rsatkichlarning ushbu mezonlarga muvofiq kelishi tahlil etilganda quyidagi natijalar qo'lga kiritildi (1, 2 -jadvallar).

1-jadval.

Respondent-o'quvchilar tomonidan kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining o'zlashtirilish darajasi (tajriba guruhi

№	Mezonlar	Yuqori	O'rta	Past
1	O'quvchilarning kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish hayotiy zaruriyat	35	23	9

	ekanligini his etishlari.			
2	O'quvchilar tomonidan jamiyatda mavjud bo'lgan kasb-hunarlarning turlari, ularning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, mutaxassisliklar bo'yicha ma'lumot olish jarayoni (mutaxassislik ma'lumotini) beruvchi ta'lim muassasalari, ularda ta'lim olish shartlari, ma'lumot olish bosqichlari), ishga joylashish tartibi, kasbiy tayyorgarlikka nisbatan qo'yiluvchi talablar xususidagi nazariy ma'lumotlarning o'zlashirilishi.	33	18	16
3	Muayyan kasb yoki hunar yo'nalishi bo'yicha dastlabki ko'nikma va malakalarga egaliklari.	32	20	15
4	O'z oldilariga bo'lajak kasbiy faoliyat yuzasidan aniq maqsadni qo'ya olganliklar hamda unga erishish yo'lida amaliy harakatlarni olibborishlari.	30	18	19

2- jadval.

Respondent-o'quvchilar tomonidan kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining o'zlashtirilish darajasi (nazorat guruhi)

№	Mezonlar	Yuqori	O'rta	Past
1	O'quvchilarning kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish hayotiy zaruriyat ekanligini his etishlari.	21	27	19
2	O'quvchilar tomonidan jamiyatda mavjud bo'lgan kasb-hunarlarning turlari, ularning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, mutaxassisliklar bo'yicha ma'lumot olish jarayoni (mutaxassislik ma'lumotini) beruvchi ta'lim muassasalari, ularda ta'lim olish shartlari, ma'lumot olish bosqichlari), ishga joylashish tartibi, kasbiy tayyorgarlikka nisbatan qo'yiluvchi talablar xususidagi nazariy ma'lumotlarning o'zlashirilishi.	22	25	20
3	Muayyan kasb yoki hunar yo'nalishi bo'yicha dastlabki ko'nikma va malakalarga egaliklari.	19	22	26
4	O'z oldilariga bo'lajak kasbiy faoliyat yuzasidan aniq maqsadni qo'ya olganliklar hamda unga erishish yo'lida amaliy harakatlarni olibborishlari.	15	18	34

Yuqorida keltirilgan jadvallar hamda umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarini kasb-hunarga yoʻnaltirish, ularda muayyan kasb yoki hunar asoslari borasidagi nazariy bilimlarning oʻzlashtirilganlik, shuningdek, maʼlum kasbiy faoliyatni tashkil etish yuzasidan amaliy koʻnikma va malakalarning shakllanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlar asosida yakuniy natijalarni ifoda etishga xizmat qiluvchi jadvalni hosil qildik (3 -jadval).

3 -jadval

Respondent-oʻquvchilar tomonidan kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarning oʻzlashtirilish darajasi (tajriba soʻngida)

№	Guruhlar	Tajriba soʻngida		
		Yuqori	Oʻrta	Past
1.	Tajriba (respondentlar soni (n_1) 67 nafar	30	19	18
2	Nazorat (respondentlar soni (n_1) – 67 nafar)	15	19	33

3-jadval koʻrsatkichlariga muvofiq tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirilgan respondentlar tomonidan qayd etilgan sifat darajasi oʻrtasidagi farqli aniqroq ifoda etish maqsadida koeffitsient qiymatlarini topib olamiz. Tahlil natijasida quyidagi koʻrsatkichlar olindi (4 - jadval).

4 - jadval.

Respondent-oʻquvchilar tomonidan kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni oʻzlashtirilish darajasining oʻrtacha koeffitsienti

№	Guruhlar	Tajriba –soʻngida			Koeffitsiyent
		Yuqori	Oʻrta	Past	
1.	Tajriba (respondentlar soni (n_1) 67 nafar	30	19	18	3.17
2	Nazorat (respondentlar soni (n_1) – 67 nafar)	15	19	33	2.80

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirilgan respondent-oʻquvchilar tomonidan kasb tanlash asoslarining nazariy va amaliy jihatdan oʻzlashtirilishi borasida qayd etilgan koʻrsatkichlarni **Styudent metodi** yordamida qayta tahlil etamiz.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarini kasb-hunarga yoʻnaltirishga xizmat qiluvchi maxsus dastur, shuningdek, ana shu maqsad yoʻlida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba (n_1) va nazorat (n_2) guruhlar respondentlarining faoliyatlari mohiyatini tahlil etamiz. Respondent-oʻquvchilar tomonidan tajriba avvali va soʻngida qayd etilgan koʻrsatkichlarni matematik-statistik metod mohiyatini yorituvchi formulaga tushiramiz.

Respondent-oʻquvchilar tomonidan kasb-hunar asoslari borasidagi nazariy bilim, shuningdek, kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish koʻnikma va malakalarning shakllanganlik darajasining oshganligi xususidagi fikrning haqqoniy ekanligini tekshirish maqsadida N_0 ($m_r = m_n$) va H_0 ($m_r = m_n$) (boshlangʻich va muqobil) farazlar qabul qilindi.

Qoʻyilgan masalani quyidagicha hal etamiz: $(x - m_r) - (u - m_n) = x - u$ tushishi lozim boʻlgan ishonchlilik oraligʻini tuzamiz:

$$-t_{\alpha} \sqrt{\frac{S_T^2}{n_1} + \frac{S_H^2}{n_1}} (X - Y) < t_{\alpha} \sqrt{\frac{S_T^2}{n_1} + \frac{S_H^2}{n_1}};$$

Formula uchun talab etiluvchi koʻrsatkichlarni 1- va 2 jadvallardan olamiz va tahlilni quyidagicha olib boramiz:

Tajriba guruhlar uchun:

Oʻrtacha qiymat: $x = (2 \cdot 18 + 3 \cdot 19 + 4 \cdot 30) : 67 = 3,17$.

Oʻrtacha kvadrat qiymati: $x^2 = 10,04$.

Oʻrtacha kvadrat qiymati: $x^2 = (4 \cdot 18 + 9 \cdot 19 + 16 \cdot 30) : 67 = 10,79$.

Dispersiya: $S_T^2 = 10,79 - 10,04 = 0,75$.

Miqdor: $S_T^2 / n = 0,75 : 67 = 0,011$.

Nazorat guruhlar uchun:

O'rtacha kiymat: $Y=(2 \cdot 26+3 \cdot 28+4 \cdot 13):67=2,80$.

O'rtacha kvadrat qiymati: $Y^2=7,84$.

O'rtacha kvadrat qiymati: $Y^2=(4 \cdot 26+9 \cdot 28+16 \cdot 13):67=8,41$.

Dispersiya: $S_T^2=8,41-784=0,57$.

Miqdor: $S_T^2/n=0,57:67=0,008$.

3 - jadval ko'rsatgichlariga asosan t_2 miqdor $a=0,05$ dan topiladi: $t_2 \sim 1,96$. U holda ishonchlilik oralig'i quyidagicha bo'ladi:

$$(-1,96 \cdot \sqrt{0,007}; \quad 1,96 \cdot \sqrt{0,0007}) = (-0,16; 0,16).$$

$$\text{Demak, } x-u = 0,75 - 0,57 = 0,18.$$

Olingan natijalarga ko'ra, N_0 (boshlang'ich) faraz rad etiladi va unga muqobil bo'lgan H_1 faraz, ya'ni, $x > u$ qabul qilinadi. Shunday qilib, tadqiqotning tajriba-sinov ishlari natijalari o'zlashtirgan nazariy hamda amaliy bilimlari darajasi oshganligini ifodalovchi yakuniy xulosaning haqqoniyligi kelib chiqadi.

Olingan natijalar tajriba-sinov ishlarining samarali kechganligini tasdiqladi. Ushbu holatning yuzaga kelishida tajriba-sinov ishlarining maxsus loyiha va ishchi reja asosida olib borilganligi o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

3-bob bo'yicha xulosalar

Kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va xohish-istaklarini o'rganish, kasbiy ko'nikmani shakllantirish, kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy va samarali uslublarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tavsiya etishdan iborat.

Tajriba-sinov ishlari doirasida o'quvchi-respondentlar o'rtasidagi so'rovnomalar o'tkazishning asosiy vazifalari etib, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va xohish - istaklarini aniqlash metodikasi natijalarini analitik tahlil etish va ma'lumotlar bazasini yaratish; tahlil natijalariga ko'ra ta'lim muassasalari uchun kasb - hunarga yo'naltirish jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan uslubiy qo'llanma va tavsiyalar yaratish hamda chora-tadbirlar ishlab chiqish; o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va intilishlarini o'rganish orqali kasb-hunarga yo'naltirishning samarali metodlarini tavsiya etishdan iborat qilib belgilandi.

Tajriba-sinov ishlarida kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi.

- o'quvchilarga kasbiy axborotlar va kasbiy ma'lumotlar berish;
- psixologik tashxis metodikalarini qo'llagan holda o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini o'rganish;
- berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini anketa so'rovlari yordamida tekshirib ko'rish;
- natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda pedagogik axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi.

Respondent - o'quvchilarning kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalari darajasini aniqlashda maxsus mezonlarga tayanildi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida ular tomonidan qayd etilgan ko'rsatkichlarning ushbu mezonlarga muvofiq kelishi tahlil etilganda tajriba guruhlarida ijobiy natijalar olindi.

Olingan natijalar tajriba-sinov ishlarining samarali kechganligini tasdiqladi hamda tajriba-sinov ishlarining maxsus loyiha va ishchi reja asosida olib borilganligi o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

XULOSALAR

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish borasida olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, mazkur jarayonga nisbatan yangicha, texnologik yondoshuvning qaror topishi, o'quvchilar o'rtasida kasb va hunarlar, ularning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiluvchi talablar borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni targ'ib etishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish so'z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimini topishga imkon beradi. Tadqiqotning umumiy yakunlari, shuningdek, tajriba-sinov ishlari natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Jahon miqyosida ta'lim hamda ishlab chiqarish sohalari o'rtasida yuzaga kelayotgan integratsiya hamda O'zbekiston Respublikasida bozor ishlab chiqarishiga asoslangan munosabatlarning qapop topishi jarayonida yuzaga kelayotgan keskin raqobat va ana shu raqobatga bardoshli malakali kadrlarni tayyorlash ehtiyoji o'z-o'zidan ularni tayyorlash jarayoniga nisbatan yuqori talablarni qo'ymoqda. Malakali kadrlarni tayyorlash jarayonining muhim bosqichi sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish alohida ahamiyatga ega.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining yaxlit tizimini yaratish, ushbu tizim asosida pedagogik faoliyatni olib borishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'zlangan maqsadning ijobiy yechimini topishga yordam beradi.

Samarali kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish o'quvchilarning shaxsiy, psixologik va intellektual sifatlariga tayangan holda ular tomonidan kelajakda yo'lga qo'yiluvchi kasbiy faoliyatning to'g'ri tanlanishini ta'minlaydi. Zero, psixologik xususiyatlariga ko'ra o'smirlik yoshi shaxsda muayyan kasb yoki hunar asoslarini o'rganish, bu borada amaliy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini o'zida shakllantirishga nisbatan intilish yuzaga keladi. O'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari, psixologik, intellektual va fiziologik

xususiyatlarini inobatga olish asosida ular o'rtasida kasbiy ma'rifatni tashkil etish ta'lim muassasasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lishi zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining shaxsiy imkoniyatlari, psixologik, intellektual va fiziologik xususiyatlariga tayangan holda ularni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishda muayyan yondashuvlar asosida ish ko'rish maqsadga muvofikdir. O'quvchilar shaxsi xususida umumiy ma'lumotlarni berish imkoniga ega bo'lgan tavsifnomani yaratish ana shunday yondoshuvlardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Tavsifnoma o'quvchilarning yosh psixologik, intellektual va fiziologik imkoniyatlariga tayangan holda ularni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltiribgina qolmay, balki ular tomonidan kelgusida kasbiy faoliyatning samarali yo'lga qo'yilishi uchun zamin hozirlovchi omil sifatida ham amaliy ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish borasida olib borilayotgan pedagogik faoliyat samaradorligi oshirish maqsadida tadqiqot jarayonida jamiyatda mavjud bo'lgan kasb va hunarlar ijtimoiy-g'oyaviy, amaliy ahamiyati hamda yo'nalishlariga ko'ra muayyan guruhlariga ajratildi va ana shu guruhlariga tarkibidan o'rin olgan mutaxassisliklar bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlarni chuqur egallashda muhim ahamiyat kasb etuvchi aqliy, ahloqiy va irodaviy sifatlar tavsiflandi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ular o'rtasida kasbiy ma'rifatni tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish, mazkur jarayonda texnologik yondoshuv asosida ish yuritish muammoning ijobiy yechimini topishni kafolatlaydi.

2. Pedagogik yo'nalishda olib boriluvchi tadqiqotlarning muhim tarkibiy qismi - bu muayyan muammo bo'yicha amaliyotning mavjud holatini o'rganish yutuq va kamchiliklarni aniqlash, yutuqlarni boyitish hamda kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan muayyan chora-tadbirlarni belgilashga yo'naltirilgan asoslovchi - tajriba sanaladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish muammosini tadqiq etish jarayonida ham ana shu tajribani

tashkil etish hamda muammoning amaliyotdagi ahvolini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Asoslovchi tajriba respondent sifatida belgilangan 134 nafar o'quvchi, 22 nafar o'qituvchi hamda 118 nafar ota-onalar ishtirokida yo'lga qo'yildi. Muammoning mavjud ahvoli respondentlar o'rtasida ijtimoiy va anketa so'rovlari va suhbatlarni tashkil etish, respondentlar faoliyatini bevosita hamda bilvosita kuzatish asosida o'rganildi. So'rovlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning amaliyotdagi holatini yoritishga xizmat qiluvchi muallif tomonidan ishlab chiqilgan maxsus, shuningdek, pedagogik izlanishlarni yo'lga qo'yishda qo'llanilib kelinayotgan so'rovnomalardan foydalanildi.

Dastlabki tajribaning umumiy yakunlari shundan guvohlik beradiki, jamiyatda yangicha ijtimoiy qarash, iqtisodiy sohada esa bozor munosabatlarning qaror topayotgan bir sharoitda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishini tashkil etishda muayyan kamchiliklar mavjud. Ulardan eng muhimi o'quvchilarda keng ko'lamda kasbiy ma'rifatning yo'lga qo'yilmayotganligi, yangi texnologiyalar asosida bu borada tashkil etilayotgan pedagogik faoliyat samaradorligini kuchaytirishga nisbatan yetarli darajada e'tiborning qaratilmayotganligidir.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu muammolarni qisman bo'lsa-da, ijobiy hal etishga urindik. Bu urinish o'quvchilar o'rtasida kasb-hunar asoslari borasidagi nazariy bilimlarni targ'ib etish, ularda ma'lum kasb yoki hunar yo'nalishida dastlabki ko'nikma va malakalarni hosil qilishga nisbatan texnologik yondoshuv qapop toptirish bilan tavsiflanadi.

Shakllantiruvchi tajriba jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning samarali yo'llarini topish, mazkur jarayonda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga alohida ahamiyat qaratildi. Tadqiqotning asosiy maqsadini amalga oshirishga yordam beruvchi o'quv va amaliy tadbirlarning barchasi maxsus loyiha asosida tashkil etildi.

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish borasidagi tajriba ishlarining maxsus metodika (loyiha) asosida tashkil etilganligi

bu boradagi faoliyatning samarasini ta'minlashga imkon yaratdi. Zero, maxsus metodika tajriba ishlarining umumiy mohiyatini yoritish, faoliyatni tartibli, izchil hamda muayyan tizim asosida yo'lga qo'yilishiga imkon beradi.

Tajriba-sinov ishlarining yakunlarini tahlil etish umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, ularda muayyan kasbiy faoliyat bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish borasida muayyan yutuqlarga erishilganligini ko'rsatdi. Ushbu xulosa tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik metod yordamida qayta tahlildan o'tkazilgan vaqtda yana bir bor tasdiqlandi.

Tadqiqot ishi natijasiga ko'ra quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan yaxlit tizimini yaratish.
2. Kasb va hunarlar, ularning mohiyati, yo'nalishi, o'ziga xos xususiyatlari, mutaxassisning kasbiy tayyorlarligiga qo'yiluvchi talablar, shuningdek, Respublika hududida muayyan kasb yoki hunar yo'nalishida mutaxassislik ma'lumotini berish yo'lida faoliyat olib borayotgan o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari xususida yetarli darajada ma'lumot bera oluvchi bukletlarni yaratish.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida ishlab chiqarish korxonalari bilan o'zaro hamkorlikka erishishlarini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Karimov I. A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997y.- 48b.
2. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-t. – T.: O‘zbekiston. 1999y.-440b.
3. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-t. -T.: O‘zbekiston. 2000y.-528b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod– O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot– matbaa konserni, 1998. 63 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli «O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 29-oktabrdagi 473-sonli qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma’kamasining 2004 yil 9 iyuldagi «2004-2009 yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 321-sonli qarori
9. O‘zbekiston REspublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 iyung‘ “Umumta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o‘qitish bilan qamrab olishni ta’minlash bo‘yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 109-sonli qarori
10. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining Asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni O‘zbekistonning yangi Qonunlari. –T.: O‘zbekiston. 1992y. №5. 181-192b.
11. Avazboyev O. I. Pedagogik litseyda mehnat ta’limining kasbiy-pedagogik yo‘nalishiga doir Xalq ta’limi tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangi

avlodni tayyorlash muammolari (ilmiy-nazariy Kengash ma'r. to'pl). –T.: Nizomiy nomidagi TDPI. 1996y. -90-91b.

12. Adilova N. Uzluksiz ta'lim sharoitida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish. J. Maktab va hayot-2005-№7.

13. Almetov N. SH. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan foydalanish. –Chimkent. Janubiy Qozog'iston universiteti. 1993y.

14. Arziqulova D. N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari.: Psix.fan.nom., diss. avtoref. -T.: 2002y

15. Asadov Y.M. O'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlashning psixologik omillari. J. Maktab va hayot-2004-№3.

16. Ahlidinov R. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish yo'llari. J. Maktab va hayot-2005-№7.

17. Ahmedov N. O'quvchilarda kasb-hunarga xos malakalarning shakillanishida oilaning roli. J. Maktab va hayot-2005-№3.

18. Bepalko V. P. Pedagogika i progressivniy texnologii obucheniY. –M.: IRPO. 1996g.

19. Boboshev T. Yosh avlod tarbiyasida mehnatning o'rni. J. Maktab va hayot. J-2005-№8.

20. Boltaboyev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent 2000.

21. Botirov S. Maktabda kasb tanlash ishlarini rejalashtirish. J. Maktab va hayot-2005-№8.

22. Botirov S. Mehnat ta'limi va umumta'lim fanlarni o'qitishda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari. J. Maktab va hayot-2005-№6.

23. Vorobyov A. I. Teoriya i praktika proizvoditelnogo truda uchashixsya v usloviyax reformu obsheobrazovatelnoy shkoli. –T.: Fan. 1986g.

24. Voronin N. T. Professionalnaya oriyentatsiya shkolnikov. –Yaroslavl. YAGPI. 1987g.

25. G'ofurov J. O'quvchilarni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga yo'naltirishda hamkorlik. J. Maktab va hayot-2005-№3.
26. Davlatov K. Adhamov M. O'quvchilarni mehnat va hunar ta'limida kasb tanlashga olib keladigan omillar. Maktab va xayot 2005y.
27. Davlatov K. va boshq. Mehnat va kasb-ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. –T.: O'qituvchi. 1992y.
28. Davlatov K. Mexnat va kasb ta'limi, tarbiyasi xamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. Toshkent,"O'qituvchi" 1992 yil.
29. Davlatov K., Adhamov M. O'quvchilarni mehnat va hunar ta'limida kasb tanlashga olib keladigan omillar. J. Maktab va hayot-2005-№4.
30. Djurayev T. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini yanada rivojlantirish istiqbollari va vazifalari. J. Maktab va hayot-2005-№7.
31. Djurayev T. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimining yanada rivojlantirish istiqbollari va vazifalari. Maktab va xayot 2005y. №3
32. Djurayev T.I. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish xizmati oldida turgan dolzarb vazifalar. J-Maktab va hayot-2004-№7.
33. Jalolov A. Kasb kanday tanlanadi.Toshkent "Yangi asr avlodi" 2010 yil.
34. Jo'rayev R.H. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning metodologik asoslari. J. Maktab va hayot-2004-№7.
35. Zakirov A. 9-sinf bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga izchil o'tishidagi bajarilayotgan ishlar. J. Maktab va hayot-2005-№4.
36. Zakirov A. Kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-metodik va dasturiy ta'minoti. J. Maktab va hayot-2005-№6.
37. Zakirov A. O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini va shaxs tipini aniqlash metodikasi. J. Maktab va hayot-2005-№3.
38. Zakirov A. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning samarali usullari. J. Maktab va hayot-2005-№1.
39. Klimov YE. A. Kak vibirat professiyu Kn. dlya uchashixsya st.klassov.sredney shkoli. -M.: Prosvesheniye. 1990g.

40. Klimov YE. A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniY. - Rostov-na-Donu. Finiks. 1996g.
41. Kovalenok T.K.Problemi professionalnoy oriyentatsii v protsesse trudovogo obucheniya i obsheobrazovatelnix dissiplin. J. Maktab va hayot-2004-№4.
42. Qodirov B. O. O‘zbek xalq pedagogikasining shakllanishi. –T.: Fan. 1992y.
43. Krishtanovskaya O.V. Injeneri: stanovleniye i razvitiye professionalnoy gruppi. M.: Nauka, 1989. 144 s.
44. Kurbanov SH. E. Sotsialno-pedagogicheskiye osobennosti natsionalnoy modeli i programmu po podgotovke kadrov. Diss., dokt.ped.nauk. –T.: 2000g.
45. Kurbanov SH., Seytxalilov E. Natsionalnaya programma po podgotovke kadrov. –T.: Universitet. 2000g.
46. Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta’limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. Metodik qo‘llanma Maktab va hayot 2013y 5-soni va 2014 y 1-son.
47. M.Cherednikov SH.Ergashev. Professiografiya i ponyatiye professii J. Maktab va hayot-2004-№7.
48. Magzumov P. T. Va boshq. O‘qituvchilarni mehnatga va kasbga tanlashga tayyorlash. –T.: O‘qituvchi. 1991y.
49. Mamajonov A. Kasbiy maslahat turlari va o‘tkazish usullari. J. Maktab va hayot-2004-№1.
50. Mamajonov A. O‘quvchilarda kasb madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik muammolari. J. Maktab va hayot-2004-№3.
51. Mamajonov A. Shaxs kasb madaniyatining tarkibi, ko‘rsatkichlari va belgilarining asoslanishi. J. Maktab va hayot-2004-№5.
52. Mejdunarodnaya standartnaya klassifikatsiya zanyatiy: Mejdunar. byuro truda. Jeneva; M.: Finstatinform, 1998. 352 s.
53. Mirzayeva S.R. Mamedov K.G‘. O‘spirinlarning kasb tanlash motivlari xususida.
54. Mordovskaya A. V. Formirovaniye professionalnix interesov shkolnikov v protsesse fakultativnix zanyatiy.: Avtoref. diss., kand.ped.nauk. –M.: 1990g.
55. Muslimov N.A., MullaxmetovR.G. Kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: O‘zROO‘MTV, 2007.

56. Nasriddinova G.S. Kasb tanlashda yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarni bartaraf etish yo‘llari. J. Maktab va hayot-2004-№5.
57. Nishonaliyev U. Formirovaniye lichnosti uchitelya trudovogo obucheniya: problemu i perspektivu. –T.: Fan. 1996g.
58. Orlov A. B. Sklonnost k professii. –M.: Znaniye. 1981g.
59. Ochilov Z. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda kasb tanlashni shakllantirish. –T.: O‘qituvchi. 1996y.
60. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Qarshi. Nasaf. 2000y.
61. Parsons T. Sistema sovremennix obshestv: Per. s angl. M.: Aspekt-press, 1997. 270 s.
62. Podmarkov V.G. Chelovek v mire professiy // Vopr. filosofii. 1972. № 8. S. 53–62.
63. Radayev V.V., Shkaratan O.I. Sotsialnaya stratifikatsiya: Ucheb. posobiye dlya vuzov. M.: Nauka, 1995. 237 s.
64. Rahmatullayev A. Mehnatga ehtiyojni tarbiyalash.: Boshlang‘ich ta’lim j. 1993y. № 11-12.
65. Rashidov H.F. Ergashev SH.T. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini standartlashtirish to‘g‘risida. J. Maktab va hayot-2004-№7.
66. Rashidov H.F. Ergashev SH.T. Kasb-hunarga yo‘naltirish-dolzarb jarayon. J. Maktab va hayot-2004-№4
67. Rashidov H.F., Turdubekov Kasb tanlashning iqtisodiy ijtimoiy asoslari. J. Maktab va hayot-2004-№8.
68. Rashidov H.F., Turdubekov U.B. Kasb tanlashning iqtisodiy ijtimoiy asoslari. Maktab va xayot 2004y. №3
69. Rashidov H.F., Ergashev SH.T. Kasb-hunarga yo‘naltirish-dolzarb jarayon Maktab va hayot 2004 y. №3
70. Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. –T.: RTM. 2000y.
71. Saparov M.Y. Kasbga yo‘naltirishning amaliy psixologik texnologiyalari.
72. Smelzer N. Sotsiologiya: Per. s angl. M.: Feniks, 1994. 688 s.
73. Sokolova G.N. Ekonomicheskaya sotsiologiya: Ucheb. dlya vuzov. Minsk.: Visheysh. shk., 1998. 368 s.
74. Sorokin P. Sistema sotsiologii: V 2 t. T. 2: Sotsialnaya analitika: Ucheniye o stroyenii slojnix sotsialnix agregatov. M. : Nauka, 1993. 688 s

75. T. Djurayev O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi: muammo va yechimlar. Maktab va xayot. 2007y.
76. Tolipov O'.Q., Sharipov SH.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. – Toshkent: O'zPFITI. 2004. 32 b.
77. Turdibekov U.B., Rashidov H.F. Kasb tanlashning iqtisodiy-ijtimoiy asoslari. J. Maktab va hayot-2004-7.
78. Tursunov L.S. Shaxsda kasbga xos malakalarni shakllanishida oilaning ta'siri. J. Maktab va hayot-2004-№5.
79. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari Res. ilmiy-amaliy konf.mat. –T.: Maktab va hayot. 2000y.
80. Umarov S.B O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyalari. J. Maktab va hayot-2004-№6.
81. O'quvchilarning qiziqish va moyilliklari diagnostikasi metodik tavsiyanomalar. –T.: RO'MM. 2001y.
82. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar Tasniflagichi. –T.: Chinor YENK. 2000y.
83. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi. Rasmiy nashr. Toshkent, 2011
84. Farobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –T.: Meros. 1993y.
85. Haydarov M. O'quvchilar mehnat tarbiyasida xalq an'alaridan foydalanish Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. –T.: Nizomiy nomidagi TDPI. 1996y.
86. Hasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. –T.: O'qituvchi. 1993y.
87. Xodjayev SH.A. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ijtimoiy-psixologik treninglarning o'rni. J. Maktab va hayot-2004-№4.
88. Hoshimov K. va boshq.. Pedagogika tarixi. –T.: O'qituvchi. 1996y.
89. Xudoynazarov T.A. Kasb tanlashning psixologik asoslari. J. Maktab va hayot-2004-№7.

90. Xudoynazarov T.A. Kasb tanlashning psixologik asoslari. Maktab va xayot2004y. №3
91. Xudoynazarov T.A. Sharq allomalarining yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish to‘g‘risidagi mulohazalarining bugungi kundagi o‘rni. J. Maktab va hayot-2004-№2.
92. Cherednikov M.G. «Kasblar olami” video ensiklopediyasidan foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Maktab va xayot2004y. №3
93. Cherednikov M.G. Kasbga yo‘naltirishning axborot texnologiyasi. J. Maktab va hayot-2004-№2.
94. Chistyakova S. N. Professionalnaya oriyentatsii shkolnikov: organizatsiya i upravleniye. –M.: Znaniye. 1987g.
95. Sharipov SH. Shaxsni kasbiy-ijodiy rivojlantirish texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari. J. Maktab va hayot-2005-№8.
- 96.** Sharipov SH., Shonazarov R. Kasb tanlashga yo‘llash fanidan metodik qo‘llanma.Toshkent – 2007
- 97.Sharipov.SH.S., Muslimov.N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. Toshkent-2011.
98. Yuldashev A.V., Eshmanova J.T., Bozorboyeva A.R. O‘quvchilarni kasb-hunar tanlashida ishlab chiqarishning roli. J. Maktab va hayot-2004-№8.
99. Yadgarova G.T. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar. Maktab va xayot 2006y.
100. Yakubova X. Mexnat ta’limi va kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv uslubiy majmua. T.:TDPU. 2013y.

ILOVALAR

1. “Kasb tanlash motivini aniqlash” so‘rovnoma

Ko‘rsatma: Quyida keltirilgan so‘rovnoma savollarini diqqat bilan o‘qib, kasb tanlashda o‘zingiz uchun muhim bo‘lgan motiv (sabab)ni aniqlab oling. Agar ushbu motiv Siz uchun ahamiyatli bo‘lsa, u holda javob varaqasida savol yoniga (+) belgisini, ahamiyatsiz bo‘lsa (-) belgisini qo‘ying.

1. Kasbning mazmuniga qiziqish, tanlangan kasbda mutaxassisning vazifalari nimalardan iborat ekanligini bilish.
2. Tanlangan kasb bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga intilish.
3. Tanlangan kasbning jamiyatda nufuzga ega ekanligi.
4. Oilaviy an‘analarning ta‘siri.
5. Ota-onaga moddiy jihatdan qaram bo‘lmaslik.
6. Tanlangan kasbiy faoliyatga aloqador bo‘lgan o‘quv fanlarini maktabda yaxshi o‘zlashtirish.
7. Odamlarga rahbarlik qilish.
8. Yakka tartibda ishlash.
9. Ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish, yangilik yaratish orzusi.
10. Tanlangan kasb sening qobiliyatinga mos ekanligiga ishonch hosil qilish.
11. Moddiy ehtiyojningni qondirish imkoniyati.
12. Hayotingni to‘laqonli, qiziqarli, maroqli bo‘lishiga intilish
13. Mustaqil faoliyat ko‘rsatish imkoniyati mavjudligi.
14. Tadbirkorlik faoliyatiga qiziqish.
15. Oilaga moddiy yordam ko‘rsatish zaruriyati.
16. Iqtisodiy bilimlarni egallash istagi.
17. Mutaxassislik qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar oliy ma‘lumot to‘g‘risida diplomga ega bo‘lish istagi.
18. Uzoq muddat o‘qishni talab etadigan kasbni egallash istagi.
19. Nufuzli tashkilotda ishlash istagi.
20. Kasbni faqatgina moddiy manfaatni ko‘zlab tanlash.

21. Zamonaviy kasblar (menedjer, biznesmen, broker)ni tanlash.

22. Odamlarga foyda keltirish istagi.

23. Kasbiy faoliyatning moddiy tomoniga qiziqish.

24. Kasbning faqatgina tashqi xususiyatlari (odamlarning diqqat markazida bo'lish, sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lish, maxsus kiyimda yurish)ga qiziqish.

“Kasb tanlash motivlari” so‘rovnomasining natijalarini hisoblash:

Har bir ustundagi “+” lar yig‘indisini hisoblang. Qaysi ustunda “+” soni ko‘p bo‘lsa, demak sinaluvchida aynan shu motivning ustunligini anglatadi.

A – nufuzli kasbni egallash, jamiyatda mavqega ega bo‘lishga intilish motivining ustunligi;

B - tanlangan kasbdan moddiy manfaatdorlikka ega bo‘lish motivining ustunligi;

V – tanlangan kasbning ijod bilan bog‘liqligi, yangi texnologiyalarni yaratish, zarur malaka va ko‘nikmalarni egallashga intilish.

Javob varaqasi

A		B		V	
№	Javoblar	№	Javoblar	№	Javoblar
3		5		1	
4		8		2	
7		11		6	
17		14		9	
18		15		10	
19		16		12	
21		20		13	
24		23		22	
J.		J.		J.	

Qiziqishlar so'rovnomasi

Ko'rsatma: quyidagi savollarni diqqat bilan o'qing va javob bering. Agar siz savollarda berilgan sohaga qiziqsangiz, yoqtirsangiz javob varaqasida savol raqamiga mos raqam yoniga «+», yoqtirmasangiz, xohlamasangiz, «-» ikkilansangiz, to'liq ishonchingiz bo'lmasa «x» belgisini qo'ying. Barcha savollarga javob berishingiz shart hamda xaqoniy bo'lishingizni so'raymiz. Marxamat:

Sizga yoqadimi?, yaxshi ko'rasizmi?

1. Fizika va matemmatika fanlari.
2. Ximiya darslari.
3. Maishiy elektr va radio ashyolar bilan ishlash.
4. Xar xil mamlakatlar bilan geografik karta yoki ular xaqidagi maqolalar orqali tanishish.
5. Texnika mavzuidagi jurnal vamaqolalarni o'qish.
6. Jaxon mumtoz adabiyotini o'qish.
7. Pedagoglar xayoti kitoblarni, maqolalarni o'qish.
8. Tarix fani.
9. Meditsina sohasidagi yangiliklar, tabibilar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'qish.
10. O'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishish.
11. O'zingiz yashayotgan, o'qiyotgan xonalarning shinam va saranjom-sarishta bo'lishiga e'tibor berish.
12. Teatr, muzey, ko'rgazmalarga borish.
13. sport musobaqalarini televizorda ko'rish, stadionlarga borish.
14. Fizika vva matematikaga oid ilmiy-ommabop kitolarni o'qish.
15. Ximiya sohasidagi yangiliklarni bilish.
16. adiotexnika sohasi bo'yicha jurnal va maqolalarni o'qish.
17. Geologik topilmalar to'g'risida o'qish.
18. Zamonaviy texnika yutuqlari bimlan tanishish.
19. Adabiyotshunoslik, adabiy tanqidiy maqolalarni o'qish.

20. O'qishga qiynalayotgan, orqada qolgan o'rtoqlaringizga yordamlashish.
21. Tarixiy shaxslar va voqealar to'g'risidagi kitoblarni o'qish.
22. Odam anatomiyasini o'rganish.
23. Biologiya va botanikani o'rganish.
24. O'zingizga yoqqan maqolalar, xabarlarni to'plash.
25. Maqom yo'lidagi musiqalarni tinglash.
26. Sportga oid gazeta va jurnallarni o'qish.
27. Fizika laboratoriya mashg'ulotlar o'tkazish.
28. Ximimiyadan laboratoriya mashg'ulotlarida tajribalar o'tkazish, ximya ryaksiyalarini borishini kuzatish.
29. Buzilgan elektr ashyolarini tuzatish.
30. Har xil tosh, minerallarini to'plash.
31. Har xil buzuqmexanizmlarni tuzatish.
32. Do'stlar bilan xat yozishib turish.
33. Ukalaringiz yoki kichkintoy qo'shnilaringizga kitob o'qib berish, ertak aytib berish, ularga nimalarnidir yasashni o'rgatish.
34. Tarixiy muzelarga borish, arxeologik ekspeditsiyalarda ishtrok etish, tarixiy ma'daniy obidalar bilan tanish.
35. Keksa kishilarga yordamlashish, ularga ☐ amxo'rlik qilish.
36. O'simliklarni parvarish qilish, ularni o'sishi va rivojlanishini kuzatish.
37. To'g'ri kelganda o'zingiz ovqat tayorlashingiz.
38. Sahnada chiqish qilish, qo'shiq aytish, rol bajarish.
39. Sport o'yinlarida qatinashishi.
40. Rasm chiqarish uchun qorishma, reaktivlarini tayyorlash.
41. Ximiya to'garaklariga qatnashish, olimpiyadalarda ishtirok etish.
42. Eski radiopribor, zahira qismlarini to'plash, yig'ish.
43. Gegrafik va geologik ekspeditsiyalarda ishtrok eetish, ular haqida o'qish.
44. Somalyot, kema va boshqa apparatlarning modelini yasash.
45. Chet tilini o'rganish.
46. Kichik sinflarga borib, ularga yordamlashish.

47. Tarixdan olimpiada, viktarinalarda ishtrok etish.
48. Bemor kishilarga yordamlashish.
49. Biologiya to‘garagiga qatnashish, olimpiadalarda ishtrok etish.
50. Odamlarga haril maishiy xizmat qilish (Sartarosh, kimyoviy tozalash, go‘zallik salonida va x.k. ishlash).
51. Musiqa assboblarini chalish, rasm chizish, yoki yog‘och o‘ymakorligi.
52. Sport seksiya va musobaqalarida ishtirok etish.
53. Fizika yoki matematika olimpiadalarida ishtirok etish.
54. Ximyaviy masalalar, testlarni yechish.
55. Radioapparaturo, magnitafon, televizorlarni qisimlarga ajratish, to‘plash.
56. Geografik va geologik kontr kartalarni ishlatish.
57. Texnik chizma(cheyertej) va sxemalar chizish tarxini o‘rganish.
58. She’r yozish, kundalik yuritish.
59. Ma’ruzalar bilan yig‘ilish yoki konferensiyalarda chiqish qilish.
60. Turli xalq va davlatlarning kelib chiqishi tarixini o‘rganish.
61. Tabobat haqida kitob va maqolalarni o‘qish.
62. Tirik tabiatni kuzatish, o‘simliklar bilan tajriibalar o‘tkazish.
63. Tanishlaringiz, o‘rtoqlvaringizga do‘kondan kiym-kechak harid qilishga yordamlashish.
64. Sa’nat rivoji tarixi bilan qiziqish.

1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	11.	12.	13.
14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39
40	41	42	43	44	45	46	47	48	49	50	51	52
53	54	55	56	57	58	59	60	61	62	63	64	65
I	II	III	VI	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	XII

Yo'riqnoma: O'zingizni qaysi kasbga moyilligingizni aniqlash uchun uch variantdan birini "a", "b" yoki "v" ni tanlang va javob varaqasida belgilang.

1. Kasbiy faoliyatimda men hohlardimki...

- A) har xil odamlar bilan muloqatda bo'lishni;
- B) filmlarni suratga olish, kitob yozish, rasm chizish, sahna ko'rinishlarida o'ynashni va hokozo;
- V) hisob- kitob bilan shug'ullanish, hujjat yuritishni.

2. Kitob va kinofilmda meni ko'proq jalb qiladi narsa, bu

- A) muallifning hayolini kuzatishning imkoniyati borligi;
- B) badiiy forma, yozuvchi yoki rejissyorning mahorati;
- V) syujet, qahramonlarning harakati.

3. Meni ko'proq quyidagi yo'nalishlarda yutuqqa erishish quvontiradi...

- A) jamoatchilik faoliyatim uchun;
- B) fan taraqqiyotida;
- V) san'at sohasida.

4. Men quyidagi kasblarni tanlagan bo'lar edim...

- A) bosh mexanik;
- B) ekspeditsiya boshlig'i;
- V) bosh buhgalter.

5. Inson va jamiyatning kelajagini quyidagilar belgilaydi...

- A) odamlar o'rtasida hamjihatlik, bir-birini tushunish ;
- B) fanda yangilik yaratish;
- V) ishlab chiqarishning rivojlanishi.

6. Agar men rahbar bo'lsam, unda men birinchi o'rinda e'tiborimni qaratar edim...

- A) ahil, jipslashgan jamoa tuzish;
- B) o'qitishning yangi texnologiyasini yaratish;
- V) hujjatlar bilan ishlash.

7. Texnika ko'rgazmasida meni ko'proq jalb qiladi...

- A) eksponatlarning ichki qurilmasi;

- B) ulardan amaliyotda foydalanish;
- V) eksponatlarning tashqi ko‘rinishi (rangli shakli).

8. Odamlarda men ko‘proq qadrlayman...

- A) do‘stonalik va ko‘ngilchanlik;
- B) jasurlik va chidamlilik;
- V) ma’suliyatlilik va saranjom-sarishtalik.

9. Bo‘sh vaqtimda men xohlardimki...

- A) turli eksperiment va tajribalar o‘tkazishni;
- B) she’r yozish, musiqa yozish, rasm chizishni;
- V) sport bilan shug‘ullanishni;

10. Chet el sayohatlarida meni ko‘proq qiziqtiaradigani...

- A) o‘zga mamlakatning tarixi va madaniyati bilan tanishish imkoniyati borligi
- B) ekstremal sayohat (alpinizm, tog‘ chang‘isi)
- V) biznes yoki tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyati borligi

11. Menga quyidagi mavzularda suhbatlashish qiziqarliroq...

- A) odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar;
- B) yangi ilmiy gipoteza (yangi ilmiy qarash);
- V) mashina, kompyuterlarning yangi modellari.

12. Agar mening maktabimda faqat uchta to‘garak faoliyat yuritganda, men tanlardim...

- A) texnika;
- B) musiqa;
- V) sport.

13. Maktabda alohida e’tibor qaratish kerak...

- A) o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga;
- B) o‘quvchilarning sog‘ligini qo‘llab - quvvatlash, sport bilan shug‘ullanishga;
- V) tartib intizomni kuchaytirishga.

14. Men katta qiziqish bilan tomosha qilaman...

- A) ilmiy-ommabop filmlarni;
- B) madaniyat va san’at to‘g‘risidagi ko‘rsatuvlarni;

V) sport ko'rsatuvlarini.

15. Men xohlardimki ishlashni...

A) bolalar va tengdoshlarim bilan;

B) mashina va mexanizmlar bilan;

V) tabiat obyektlari bilan.

16. Maktab birinchi navbatda...

A) insonlar bilan muloqot qilishga o'rgatishi;

B) bilim berishi;

V) faoliyat ko'nikmalariga o'rgatishi.

17. Hayotda asosiy narsa -bu...

A) ijod bilan shug'ullanishga imkoniyat bo'lishi;

B) sog'lom hayot tarzini olib borish imkoniyati;

V) o'z ishlaringni aniq rejalashtirish imkoniyati.

18. Davlat birinchi o'rinda g'amho'rlik qilishi kerak...

A) fuqoralarning huquq va manfaatlarini himoya qilish to'g'risida;

B) fan va texnika sohasidagi yutuqlar to'g'risida;

V) fuqoralarning moddiy manfaatdorligi to'g'risida.

19. Menga ko'proq yoqadigan darslar...

A) mehnat;

B) jismoniy tarbiya;

V) matematika.

20. Menga ko'proq quyidagi faoliyat bilan shug'ullanish qiziq bo'lar edi...

A) mahsulotlarni tarqatish;

B) buyum ishlab chiqarish;

V) mahsulotlarni ishlab chiqarishni rejalashtirish.

21. Men quyidagi mavzularda maqolalar o'qishni yoqtiraman...

A) taniqli olimlar va ularning yaratgan yangiliklari haqida;

B) qiziqarli kashfiyotlar haqida;

V) yozuvchilar, rassomlar va musqachilarning hayot va ijodi to'g'risida.

22. Bo'sh vaqtimda men yoqtiraman...

- A) kitob o'qishni, fikrlashni, mulohaza yuritishni;
- B) biror narsani yasash, tikish, hayvonlarni va o'simliklarni parvarishlashni;
- V) ko'rgazmalarga, konsertlarga, muzeylarga borishni.

23. Quyidagi yangiliklar menda katta qiziqish uyg'otadi...

- A) fan olamidagi yangiliklar;
- B) badiiy ko'rgazmalar haqidagi yangiliklar;
- V) iqtisodiy vaziyat to'g'risidagi yangiliklar.

24. Men ishlashni afzal ko'rar edim...

- A) odamlar ko'p bo'lgan xonada;
- B) oddiy bo'lmagan (noana'naviy, ekstremal) sharoitlarda;
- V) oddiy xonada.

Natijalar tahlili:

- 10-12 ball – yorqin ifodalangan kasbiy moyillik
- 7-9 ball - aniq turdagi faoliyatga kasbiy moyillik
- 4-6 ball- sust ifodalangan kasbiy moyillik
- 0-3 ball- kasbiy moyillik ifodalanmagan.

Oltita qator-bu oltita faoliyat turi. Eng ko'p ball yig'gan faoliyat turlariga e'tibor bering. Sizning tanlagan kasbingiz kelib chiqqan natijalar bilan to'g'ri keladimi?

1 qator – odamlar bilan ishlashga moyillik. YA'ni boshqaruv, o'qitish, tarbiyallash, xizmat ko'rsatish (maishiy, tibbiy, axborot tahlil) kasblarga moyillik. Bu guruhga doir insonlar odamlar bilan til topishi olishlik, muloqatligi, ularni kayfiyatini tushuna bila olishi bilimlarga egadirlar.

2 qator – Kashfiyotchilik (zakovatli) kasblarga moyillik. Ilmiy aloqador kasblar. Maxsus bilimlardan tashqari bunday odamlar o'zining ratsionalligi (aqliyligi) mustaqil fikrlashi, zehni o'tkirligi bilan ajralib turadi.

3 qator – Amaliyot ishlarga moyillik. Bu kasb doirasi juda keng: temir ishlab chiqarish va qayta ishlash, ta'mirlash, elektr va mexanik jihozlari ta'mirlash, binolarni ta'mirlash, transportni boshqarish, buyum ishlab-chiqarish.

4 qator – Estetik turdagi kasblarga moyillik. Ijodiy xarakterdagi kasblar. Sahna-aktyorlik, badiiy adabiyot, musiqa, ta'sviriy sa'nat faoliyati bilan aloqador. Ijodiy kasb odamlarini maxsus qobiliyatlaridan (musiqali, adabiyli, aktyorli) tashqari o'zining originalligi va mustaqilligi bilan ajralib turadi.

5 qator – Ekstremal turdagi faoliyatga moyillik. Bu kasbga sport, sayohat, ekspeditorlik, qo'riqlash, tezkor qidiruv faoliyati, harbiy xizmat bilan aloqador kasblar kiradi. Bu kasblarning barchasi odamdan jismoniy tayyorgarlikni, sog'liqni, irodani talab qiladi.

6 qator – iqtisodiy reja faoliyat turiga moyil kasb.

Bu kasblar hisob-kitob, rejalashtirish (buhgalter, iqtisodchi), ish yurituvchilik, matn tahlili (redaktor, tarjimon, lingvist), sxematik obyektlar tasviri (chizmachilik, topograf) kiradi. Bu kasb insondan tartiblilikni talab qiladi.

Javob varaqasi

	I	II	III	IV	V	VI
1	a			b		v
2		a		b	v	
3	a	b		v		
4			a		b	v
5	a	b	v			
6	a	b				v
7		a	b	v		
8	a				b	v
9		a		b	v	
10				a	b	v
11	a	b	v			
12			a	b	v	
13	a				b	v
14		a		b	v	
15	a		b		v	

16	a		b			v
17				a	b	v
18	a	b	v			
19			a		b	v
20	a		b			v
21		a	b	v		
22		a	b	v		
23		a		b		v
24	a				b	v
Jami ballar						

**5-ilova “Kasblarni tanlash bo‘yicha topshiriqlarni bajarish”
mavzusidagi KEYS-STADI
Uslubiy ko‘rsatma**

Ushbu uslubiy ko‘rsatma xozirgi kunda dolzarb bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ta’limga joriy etishga doir bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining mexnat ta’limi o‘qituvchilari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga mazkur uslubiy ko‘rsatmadan ilmiy tadqiqotchilar hamda mehnat ta’limi fani bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin. Uslubiy ko‘rsatmada 8-sinf mexnat ta’limi fanidan “Amaliy mustaqil ishlar: kasblarni tasniflash bo‘yicha topshiriqlar bajarish. tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatliga qo‘yilgan talablar haqida referat tayyorlash” mavzusini “Keys stadi” texnologiyasi asosida o‘qitish bo‘yicha dars ishlanmasi keltirilgan. “Keys stadi” texnologiyasi asosida darsni tashkil qilish afzalligi o‘quvchi mustaqil ishlash, ijodkorlik ko‘nikmalari shakllanadi, kasbiy qiziqishlari rivolantiriladi.

Keysni yechishda o‘quvchi mustaqil ravishda mavzu bilan tanishadi, taqdim etilgan vaziyatni o‘rganadi, izohlaydi va asoslaydi, muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi, berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi, ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi, taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Keys-stadi inglizcha sase - aniq vaziyat, study – ta’lim co‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni

o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

O'quv fani: "Mehnat ta'limi"

Mavzu: Kasblarni tasniflash bo'yicha topshiriqlar bajarish. Tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatliga qo'yilgan talablar haqida referat tayyorlash.

Keysning asosiy maqsadi: Kasblarni tasniflash bo'yicha topshiriqlar bajarish. tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatliga qo'yilgan talablar haqida referat tayyorlash

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- 1) Kasblarni turlari to'g'risida tushuncha berish;
- 2) Kasblarni tasniflash bo'yicha topshiriqlar bajarish;
- 3) Tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatliga qo'yilgan talablar haqida referat tayyorlash.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quvchilar oldindan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

O'quvchi quyidagilarni bilishi kerak:

- kasblarning gruppalari;
- kasblarning bo'limlari;
- kasblarning turkumlari;
- kasblarning tiplari;
- Yaroqsizlik (mazkur kasbga yaroqsizlik);
- Yaroqlilik (u yoki bu kasb yoxud gruppaga yaroqlilik);
- Mos kelish (u yoki bu faoliyat sohasiga odamning mos kelishi);
- Havas (mazkur kasbga, faoliyat sohasiga).

O'quvchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak: tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, abstraktlashtirish, loyihalash, sxemalashtirish.

O'quvchi quyidagi malakalarga ega bo'lishi kerak: individual va hamkorlikda ishlash, kognitiv, evristik, kreativ faoliyat malakalari.


Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo'lib, aniq topshiriqlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy obyekti mehnat ta'limi darsi. Bu tashkiliy keys bo'lib, ma'lumotlar topshiriqlar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan. Mavzu yuzasidan ko'nikma va malakalarni egallashga yo'naltirilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilish, ularni hal etish, tahlil etish va yangi tavisyalar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan.

Ushbu keysdan "Mehnat ta'limi" fanini o'qitishda foydalanish mumkin.

Kasblarning gruppalari (BONM)

KASBLARNING (BONM)	GRUPPALARI



1- rasm. Kasblar klassifikatsiyasini ko'rsatuvchi sxema

Ushbu sxemani siz o'zingizning kelajakdagi mehnat yo'lingizni tanlayotganingizda o'ylab olishingizga imkon beradigan, asta-sekin pastdan yukoriga qarab chiqib borishingiz mumkin bo'lgan (kasb tipini aniklashdan boshlab uning turkumini muhokama qilishga utish va hokazo) bir «pillapoya» sifatida qarash mumkin.

1. Kasblarni kanday belgilarga qarab klassifikatsiya qilish mumkin?
2. Nima uchun kasblar klassifikatsiyasini bilish zarur?

Kasbga yaroqlilik - odam bilan uning ishi kasbi o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikdir. Ayni mana shu muvofiqlik bo'lgan taqdirdagina: «odam — kasb» formulasini ro'yobga chiqarish imkoni tug'iladi. Mana shunday o'zaro munosabat xususida to'xtalib o'tamiz.

Har qanday kishining o'zigagina xos bo'lgan muayyan shaxsiy fazilatlar, xususiyatlar mavjud bo'ladi. Tanlanayotgan kasbning shaxsga nisbatan qo'yadigan talablariga mana shu shaxsiy sifatlar qay darajada mos kelishiga qarab odamning u yoki bu kasbga yaroqliligi to'g'risida bir qarorga kelish mumkin.

Kasbga yaroqlilikni to'rt xil darajaga bo'lib, ularni bir-biridan farq qilish mumkin.

1. Yaroqsizlik (mazkur kasbga yaroqsizlik). U vaqtincha ham bo'lishi mumkin yoki amaliy jihatdan ro'yobga chiqmaydigan bo'lishi ham mumkin. Kishining salomatligi yomon bo'lganda, u yoki bu sohadagi ishga o'sha kishining sog'lig'i, shifokorlarning nuqtai nazariga qaraganda to'g'ri kelmaydi, deb topilgan hollarda kasbga yaroqsizlik to'g'risida gapirish mumkin.

Tanlangan kasbga sog'liqning to'g'ri kelmasligi xususidagi ushbu gruppaga to'g'risida biz bundan oldingi paragrafda mufassal to'xtalib o'tgan edik. Lekin tanlangan kasbga faqat sog'liq emas, balki bundan boshqa omillar ham monelik qilishi mumkin. Gap shundaki, butun bir gruppani tashkil etuvchi bir qator kasblar odamga nisbatan juda katta talablar qo'yadi. U kasblarga faqat maxsus qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina muvofiq kelishi mumkin. Agar kishida mana shunday maxsus qobiliyat yo'q bo'lsa, uning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Bunday hollarda kishidan o'z kasbiga nisbatan mutlaqo yaroqli bo'lish talab qilinadi, deb aytadilar.

Bajaradigan ishlari jarayonida odamlarning sog'lig'i va hayoti uchun xavfli bo'lgan, kutilmagan vaziyatlar sodir bo'lishi ehtimol to'atilgan kasblar (uchuvchi, xirurg, energosistemalar operatori va boshqalar) vakillari uchun o'z kasbiga ana

shunday mutlaqo yarakli bo'lish sharti qo'llaniladi. San'at bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida ham xuddi mana shu gaplarni aytish mumkin: masalan, agar kishining tasviriy san'at sohasida ishlash uchun qobiliyati bo'lmasa, rassom, arxitektor, haykaltarosh bo'lib yetishishi amri-maholdir.

2. Yaroqlilik (u yoki bu kasb yoxud gruppaga yaroqlilik). Qasbga yaroqlilikning ushbu darajasi shu bilan ajralib turadiki, bunda biror sohadagi mehnatga nisbatan monelik qiluvchi omillar bo'lmaydi, lekin ayni mahalda kishida mazkur kasbga yaqqol ko'zgatashlanib turgan mayllar ham bo'lmaydi. «Siz mana shu kasbni tanlashingiz mumkin. Ajab emas, siz shu sohada yaxshi mutaxassis bo'lib yetisharsiz» - deb tasalli berishadi bu kasbni tanlagan kishilarga. Bu jihatdan kasbga yaroqlilik darajasini ham yuqoridagi ta'rifdan bilib olish mumkin.

3. Mos kelish (u yoki bu faoliyat sohasiga odamning mos kelishi). Bunday hollarda odamning ayrim shaxsiy fazilatlarini ko'rsatib o'tish mumkin, Bu fazilatlar muayyan kasb yoki kasblar gruppasi talablariga aniq (shubhasiz) mos keladi. Masalan, biror kishida muayyan bir sohada u yoki bu mehnat obyektiga masalan, biologiya, texnika va hokazo obyektlarga nisbatan qiziqish bo'lishi yoxud biror sohada o'zini amaliy ishda sinab ko'rish vaqtida ba'zi bir yutuqlarni qo'lga kiritgan kishilardagi muvofiqlik, o'z kasbiga mos kelish buning misolidir. Kasbga yaroqlilikning bu darajasidagi kishilarga nisbatan shunday deb murojaat qilish mumkin: «Siz mana shu kasbni tanlasangiz bo'ladi, siz yaxshi mutaxassis bo'lib yetishishingiz juda mumkin».

4. Havas (mazkur kasbga, faoliyat sohasiga). Ishga havasi (rag'bat) bo'lgan bunday kishini mehnatchi sifatida inson tarakqiyotining mazkur bosqichida kasbga yaroqlilikning oliy darajasi deb hisoblash mumkin. Bu yerda gap odamni boshqalardan ajratib turadigan sifatlar to'g'risida bormoqda. Kishi taxminan o'zi bilan bir xil sharoitda ishlayotgan va o'qiyotgan tengdoshlaridan yaqqol ajralib turadi. Kasbga yaroqlilikning bunday darajasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Siz faoliyatning shu sohasi-da, ha, ayni mana shu sohada yaxshi mutaxassis bo'lib yetishasiz».

Kasbga yaroqlilik tug'ma sifat emas. U mehnat faoliyatida shakllanib boradi. Mehnat jarayonida faqat professional idrok, xotira va tafakkur rivojlanibgina qolmay, odamda muayyan xulk-atvor tipi ham, uning kollektivchilikka xos yo'nalishi ham, talabchanligi ham, burchni anglash hissi ham, shaxsning boshqa shu singari fazilatlari ham rivojlanib boradi.

Tavsiya etilayotgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

- ✓ o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- ✓ muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhviy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- ✓ mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- ✓ o'quv axborotlarini o'zlashtirish va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida masofaviy o'qitish darajasini tekshirib ko'rish.


1-muammoli topshiriq. Quyidagi kasblar klassifikatsiyasini ko'rsatuvchi sxemaga doir ma'lumotlarni o'rganing va har birini tegishli tartibda to'ldiring.

1)


kasblarning gruppalari;	kasblarning bo'limlari;	kasblarning turkumlari;	kasblarning tiplari;

2) Kasbga yaroqlilik

- Yaroqsizlik (mazkur kasbga yaroqsizlik);
- Yaroqlilik (u yoki bu kasb yoxud gruppaga yaroqlilik);
- Mos kelish (u yoki bu faoliyat sohasiga odamning mos kelishi);
- Havas (mazkur kasbga, faoliyat sohasiga).



2-muammoli topshiriq. Quyidagi Tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatliga qo'yilgan talablar bo'yicha tayyor chizma. Siz chizmaga to'ldirib, ko'rgazmali stend tayyorlang.



MUAMMOLI TOPSHIRIQLARNI BOSQICHMA-BOSQICH TAHLIL ETISH VA HAL ETISH BO'YICHA O'QUVCHILARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

O'quvchilarga yo'riqnoma

Ish bosqichlari	Maslahat va tavsiyanomalar
1. Keys va uning axborot ta'mi-noti bilan tanishish	Sxemalar bilan tanishish va ularning tarkibiy qismlari, mazmunini o'rganing. O'rganib chiqish vaqtida ularga tavsifnoma yozishga va stendni ishlab chiqishga shoshilmang.
2. Muammoli topshiriqlar bilan tanishish	Taqdim etilgan sxemalar mazmuni bilan yana bir marotaba tanishib chiqing. Sxemalar tarkibidagi tushunchalar va jumalarga diqqatingizni jalb qiling.
3. Muammoli topshiriqni tahlil eting	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb eting. Asosiy muammo: Kasblarni tasniflash bo'yicha topshiriqlar bajarish. tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar haqida referat tayyorlash Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling: 1) Kasblarni tasniflash to'g'risida tushuncha bering 2) Tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar? 3) Kasbga yaroqlilik tushunchasi Yuqorida keltirilgan sxemalarni tahlil eting va har biriga tavsifnoma yozing.
4. Muammoli topshiriqlarni	Sxemalarga tavsifnoma yozing va jadvallarni to'ldirishga kirishing. Tavsifnomalarni yozishda aniq xususiyatlarni belgilab olishga harakat

yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	qiling. Stendni tayyorlashga kirishing. Yakuniy xulosalaringiz asosida referat tayyorlang.
--	--

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

O'quvchilar ro'yxati	Sxemalarni amalga oshirishni talab etuvchi jihatlar – mak.2 ball.	Stend tayyorlangan – mak. 3 ball.	Jami. – mak. 5 ball.

Eslatma: guruhlar faoliyatini baholash uchun yuqoridagi jadvalning birinchi ustuniga “guruhlar ro'yxati” jumlasini qo'yiladi. Biroq guruhning to'plagan ballari o'quvchilarning reyting bali hisobiga kiritilmaydi. Siz o'quvchiga hamkorlikda ishlash uning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilishini tushuntirishga tayyor bo'ling.

« Kasblar tasnifini, kasblarda mehnat turlarining (odam-tabiat, odam-texnika, odam-odam, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz) ta'rifi» mavzusidagi amaliy darsiga texnologik karta

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	O'quvchi
Tayyorgarlik bosqichi	1.2.O'quvchilarga tasniflagich nusxasini tarqatadi va tanishib chiqishlarini, tahlil qilishlarini tushuntiradi. 1.3.Amaliy mashg'ulotini bajarish uchun qo'llanma tarqatma material sifatida tarqatiladi.	Tasniflagichni o'rganib chiqadi.
1 – bosqich Kirish. (20 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi. 1.2. O'quvchilarni faollashtirish uchun	Tasniflagichni tahlil qilib chiqadi, Tinglaydi, yozib

	diqqatni jalb yetuvchi savollar beradi (1-2-<i>ilovalar</i>). 1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (3-<i>ilova</i>).	boradi.
2 - bosqich. Asosiy bosqich (50 daqiqa)	2.1.O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'linadi. 2.2. "Kasb", "Mutaxassislik" va "Ixtisoslik" atamalariga o'quvchilar o'z tushunchalari asosida ta'rif yozib berishini tushuntiradi. (4-<i>ilova</i>). 2.3.Biror kasbni chuqur taxlil kilib berish so'raladi.	, "Kasb", "Mutaxassislik" va "Ixtisoslik" atamalariga t "Kasb", "Mutaxassislik" va "Ixtisoslik" atamalariga ta'rif yoziadi. O'zlari tanlagan biror kasbni chuqur tahlil qiladilar.
3 – bosqich. Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1.Qilingan ishlarni tahlil qiladi. 3.2.Nima uchun texnologiyasi asosida «Nima uchun kasb tanlash kerak?» degan savolni beradi. (5– <i>ilova</i>)	Berilgan topshiriqlarni topshiradilar. Savollarga javob beradilar.